47. Tarbiya turlari va vositalarining mohiyati
48. Jismoniy tarbiya berishning mazmun –mohiyati
49. Sensor tarbiya.
50. Pedagogik jarayonni rejalashtirish.
51. Metodik birlashmalarning maqsadi, mazmuni va shaqlari.
52. Ekskursiya-ta'lim berish shaqlidir.
53. Tayyorlov guruxida olib boriladigan ishlar.
54. Maktabgacha ta'limi bo'limlari nazoratchisining xuquqiy vazifalari.
55. Ta'lim to'g'risidagi qonunning maqsadi va vazifalari.
56. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash asoslari.
57. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari.
58. Axloqiy tarbiyaning vazifasi, mazmuni, prinsiplari.
59. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida yosh guruhlarda faoliyatlarni tashkil etish
60. Maktabgacha ta'limni moliyaviy ta'minlashda mudiraning roli.
61. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik jixatdan raxbarlik.
62. Bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya vositalari.
63. MTTning oila bilan ishlash shaqlari.
64. Bolani jamoada va jamoa orqali tarbiyalash.
65. Katta tarbiyachining ish vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.
66. Pedagogik jarayonni rejalashtirish.
67. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasining ta'lim to'g'risidagi vakolatlarini izoxlang.
68. Vatanga muxabbat va baynalminalchilik tarbiyasi.
69. Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bola hayotini tashkil etish.
70. Mexnat tarbiyasining mazmuni
71. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari.
72. O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha tarbiyani tashkil etish va rivojlanish bosqichlari.
73. Bolalar mexnatini o'ziga xos tomonlari va tarbiyaviy ahamiyati.
74. MTTda kun tartibini tashkil etish.
75. MTTda mehnat tarbiyasining vazifalari va mazmuni.
76. Pedagogik jarayonni rejalashtirish.(sayrni rejalashtirish)
77. O'z ustida ishlashni tashkil etish.
78. Mudira maktabgacha ta'lim tashkilotining raxbari.Unga qo'yiladigan talablar.
79. Estetik tarbiyaning vazifalari, mazmuni va metodlari.
80. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning turlari.
81. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkomol qilib tarbiyalash.
82. Aqliy ta'lim tushunchasi.
83. Maktabgacha pedagogika fanining tadqiqot metodlari.
84. Sog'lom bola tarbiyasining mazmuni va vazifalari.

85. Maktabgacha ta'lim Vazirligining vazifalari
86. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini sifat bosqichida maktabgacha ta'limning roli.
87. Jismoniy tarbiyaning pedagogik-ilmiy asoslari.
88. Pedagogik jarayonni rejalashtirish.
89. Bolaning ruxiy taraqqiyotida ta'lim – tarbiyaning yetakchi roli.
90. Maktabgacha ta'lim Vazirligi faoliyati.
91. Aqliy tarbiyaning vazifalari.
92. Maktabgacha tarbiya davrini yosh bosqichlariga bo'lish va ularni bola va ruxiy taraqqiyotidagi roli. Pedagogik kengash va uni o'tkazish
93. Bolalarni aqliy tarbiyalash va ularga ta'lim berishning nazariy asoslari.
94. MTTning oila bilan ishlash shaqlari.
95. Tekshirish turlari va unga nazoratchining tayyorgarligi.
96. Aqliy tarbiya va ta'lim metodlari.
97. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin, o'yin turlari.
98. MTT to'g'risidagi Nizomning ahamiyati, mohiyati.
99. Aqliy tarbiyaning vazifalari.
100. Mashg'ulot-bolalarga ta'lim berish shaqli.

Dastur muallifi:	Sh.A.Sadikova Nizomiy nomli TDPU, “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası p.f.n.professor. G.Sh.Shirbacheveva Nizomiy nomli TDPU, “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası v.b.dotsent, PhD D.F.Xalilova Nizomiy nomli TDPU, “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi
E-mail:	<i>SADIKOVA@mail.ru</i>
E-mail:	<i>dxalilova 1@gmail.com</i>
Tashkilot:	Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası

“Maktabgacha ta'lim” fakul'teti dekani: _____ M.T.Hamdamaova
(imzo)

2022-yil “_____” _____

“Maktabgacha ta'lim metodikasi”
kafedrası mudiri: _____ M.A.Rasulxo'jayeva
(imzo)

2022-yil “_____” _____

“Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası
p.f.n.: _____ G.Sh.Shirbacheveva
(imzo)

2022-yil “ _____ ” _____

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
o’qituvchisi.:

_____ D.F.Xalilova
(imzo)

2022-yil “ _____ ” _____

**NAZARIY MASHG'ULOT
MATERIALLARI**



**1-Mavzu: MAKTABGACHA
PEDAGOGIKANING UMUMIY
ASOSLARI.
MAKTABGACHA TA'LIM
PEDAGOGIKASI PREDMETI VA
UNING VAZIFALARI.**

REJA:

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi pedagogika fanining asosiy tarmog'i sifatida.
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining maqsadi va vazifalari.
4. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

***Tayanch tushunchalar:** Maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, bosqichlari, maqsadi, vazifalari, fanning ob'yekti, predmeti, kategoriyalari, fanlar bilan aloqasi, ilmiy-tadqiqot metodlari, suhbat, anketa, kuzatish, test.*

**O'zbekistonda maktabgacha
ta'limning vujudga kelishi va
taraqqiyot bosqichlari**

XIX asrning 80-90 yillariga kelib Markaziy Osiyoda bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g'oyalari yetildi. O'sha davrda taraqqiyparvar mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning qismatini yengillashtirishga intiladi.

Ziyoli qatlam vakillari 1872 yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kirib, "Jamiyati xayriya" tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonlarni tashkil etishdi.

Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni, butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshdagi bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896 yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarni tuzila boshlandi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan bolalar kun bo'yi bolalar yasida bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasli ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga (duogo'ylikka), oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, to'qishga, to'r taqishga, tikishga va boshqa hunarlarga o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi.

Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan shaharlarida yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" turidagi birinchi bolalar bog'chalari ochildi. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan sersoya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq, qayiqqlar, katta arg'imchoq

(ustunga osilgan) oʻrnatildi va xilma-xil oʻyinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta oʻrinni egallab, bolalar oʻzlari oʻsimliklarni parvarish qilishardi.

1891-1903 yillar davomida mablagʻ yoʻqligi sababli bogʻcha bir necha marta yopilgan. Taʼlim-tarbiyaga oid ilgʻor gʻoyalarning taʼsiri ostida Toshkentda 1903 yil fevral oyida “Oilaviy taʼlim-tarbiyaviy toʻgaragi” tashkil qilindi. Toʻgarak Harbiy ministrlilik va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshladi. U oʻz oldiga quyidagi vazifalarni:

1. Bolalarga taʼlim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish;

2. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni(oila, maktab va bolalar bogʻchasining yagona tarbiyaviy taʼsir etishini belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirishni qoʻyadi.

Bu toʻgarakda maktabgacha seksiyasi ham faoliyat koʻrsatgan. Taʼlim-tarbiya toʻgaragi yuzaga kelgunga qadar bolalar bogʻchasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yoʻq edi, shu sababli toʻgarak aʼzolari bolalar tarbiyasi bilan bogʻliq masalalarni muhokama qilishar edi.

Bolalar birinchi marta 4-yoshdan 6-yoshgacha va 6-10 yoshgacha boʻlgan ikki xil yosh guruhlariga boʻlindi. Mashgʻulotlar, oʻyin va koʻngil ochishlar programmasi belgilab qoʻyildi. Harakatli oʻyinlar, xor boʻlib aytiladigan ashula, oʻqish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari oʻrgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Taʼlim-tarbiya toʻgaragi bolalar bogʻchasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizim, xilma-xil ish shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyorgarlikka ega boʻlgan tarbiyachilar boʻlmaganligi sababli koʻpincha bogʻcha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshirilardi.

1903-1914 yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi taʼlim-tarbiya gʻoyalarining jadal suratda oʻsishi bilan xarakterlanadi. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bogʻchalari kabi ayrim bogʻchalar yuzaga keldi.

1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bogʻchalar paydo boʻldi: bu bogʻchalarda 6-yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziya oʻqishga tayyorlanardi. Bunday bolalar bogʻchalari xususiy uylarda ochilardi va tamomila ota-onalar taʼminotida boʻlgan. Maʼlumotga ega boʻlgan va chet tillarini biladigan oʻqimishli xonimlar tarbiyachilardi. Ammo mazkur bolalar bogʻchalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirganardi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bogʻchalari faqat 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

1917 yil 20 noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan “Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya” eʼlon qilinib, unda: “Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tugʻilgan kunidan boshlanadi” – deyilganardi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi boʻgʻini va tarkibiy qismi boʻlib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha taʼlim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yoʻli asosida Turkiston ASSR Maorifi Xalq Komissarligi oldida davlat maktabgacha taʼlim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik koʻrsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va b. masʼuliyatli vazifalar paydo boʻldi.

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bogʻchalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Maorifi xalq komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun maʼmuriy organ sifatida maktabgacha tarbiya boʻlimi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi boʻlimlarining qoshida maktabgacha tarbiya boʻlimlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning jonlantirishga yordam berdi.

Maktabgacha tarbiya boʻlimlarining faoliyati uch asosiy yoʻnalishdan:

1. Bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash;
2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy vakillaridan kadrlar tayyorlash;
3. Ota-onalar o'rtasida tashviqot tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

“Maktabgacha tarbiya bo‘limi to‘g‘risi”da Nizom qabul qilindi va unda bo‘lim 3-yoshdan 8-yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshdagibolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi. Yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog'chalari rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi.

O‘zbekistonning tub joy aholisi bolalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918 yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o‘zbek bolalari uchun 4 ta bog‘cha ochishga muvaffaq bo‘lindi:

1-bog‘cha – Shayxontoxur dahasida (Hasanova (mudira), Mahsuma Qoriyeva, Robiya Abdurashidova (tarbiyachi)

2-bog‘cha – Xo‘ja ko‘chasida (Anvara Yausheva (mudira)

3-bog‘cha – Ko‘kcha dahasidagi Langar ko‘chada ochilgan

4-bog‘cha – Beshyog‘och dahasida (Qodirxonov (mudir)

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog‘chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog‘cha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o‘zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O‘sha davrda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida jami 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921 yilga kelib bolalar bog‘chalarining soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy millatlarning bolalari uchun bog‘chalar 32 taga yetdi. Bolalar bog‘chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko‘prog‘i mahalliy millatlarning farzandlari edi.

Ulug‘ vatan urush yillarida O‘zbekistonda bolalar bog‘chalari va bolalar maydonchalarining tarmog‘i deyarli ikki barobar kengaydi. 1994 yil 1-yanvariga kelib, maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida 54 ming bola tarbiyalandi. Ana shu maqsad uchun davlat tomonidan 77 million so‘m ajratildi. Bu yillarda O‘zbekistonning bolalar bog‘chalarida ko‘chirib keltirilgan 16.000 dan ko‘proq bolalarni tarbiyalandi. Shuningdek, ota-onasiz qolgan qariyb 400

nafar bolani vasiylikka olish tamoyiliga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” fani maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha

yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va MTT sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi.

U maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minlaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi.

Mazkur fan “Umumiy pedagogika”ning alohida sohasi bo‘lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, metodologik asosi, tashkiliy shakl, metod va vositalariga tayanadi. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” fani maktabgacha yoshdagi bolalarga yaxlit tarbiya berishni

ko‘zlangan maqsadni, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta‘limni hayot, amaliyot bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligini, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaydi.

“Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatini, ya‘ni, shu yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e‘tiborni qaratganligi bois **didaktika (ta‘lim nazariyasi)** va **tarbiya nazariyasi** fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (yunon. “didaktikos” – o‘rgatuvchi, didasko – o‘rganuvchi) ta‘limning nazariy jihatlarini, ta‘lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlari, ta‘limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta‘lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

“Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” fanining **ob‘ekti** – maktabgacha pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi fanining **predmeti** – maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalaridan iborat.

“Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” fani bola shaxsini shakllantirishdek, ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashga alohida hissa qo‘shadi.

Fanning maqsadi va vazifalarini belgilashda ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, ularni maktab ta‘limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Bu jarayonda quyidagi **vazifalarni** bajarishga e‘tibor qaratiladi:

1. Bola shaxsini har tomonlama uyg‘un rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
2. Bolani har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta‘lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida ta‘lim tizimini takomillashtirish.
4. MTT, ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Tarbiyachilarni maktabgacha ta‘lim pedagogikagasi oid bilimlar hamda ta‘lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta‘lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.
8. O‘qitish, tarbiyalashning samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

“Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” fanining asosiy kategoriyalari

asosiy kategoriyalari maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsi kamolotini

Ma‘lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e‘tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi fanining

ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi.

Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: **ta'lim (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.**

Ta'lim – tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: bilim, ko'nikma va malaka.

Bilim – tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ta'lim ikki tomonlama tavsifga ega bo'lib, o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.

O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma, malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

O'qish – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir.

Tarbiya – muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

“Tarbiya” tushunchasi “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”ning asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'noda tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma, malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllanish – pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, ko'pincha “shaxsning shakllanishi” tarzida ishlatiladi. Jumladan, pedagog olim Yu.K.Babanskiy shaxsning shakllanishi “muhit, irsiyat, tarbiya ta'sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasi” ekanligini ta'kidlaydi. V.A.Slastenin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanovlarning fikricha, shakllanish – hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta'sirida inson rivojlanishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi – ijtimoiylashuv, tarbiya va o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. Shakllantirish – “aniq shaklga kiritish, tugallanganlik” ma'nolarini bildiradi.

Bizningcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy yondashuv asosida I.P.Podlasiy tomonidan to'liqroq ochib berilgan: “Shakllanish – hech qanday istisnosiz omillar – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik va b.ning ta'sirida insonning rivojlanish jarayoni. Shakllanish – undan keng foydalanilayotganligiga qaramay, hali to'liq o'zlashtirilmagan pedagogik kategoriya. Shakllanishning mazmuni ba'zi holatlarda juda qisqarib ketadi, ba'zan esa, haddan tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nashr etilgan pedagogik adabiyotlarda shakllanish atamasi ba'zan boshqarilmaydigan, shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi tasodiflarni aniqlash uchun qo'llanilgan. M: pedagogika qo'llanmasining taniqli muallifi P.N.Gruzdev shakllanishni stixiyali tarbiya – “ongli faoliyatdan mustaqil tarzda insonlarga ta'sir etuvchi turli shart-sharoitlar” deb nomlashni taklif etgan”.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga aytiladi. Rivojlanish – yangi sifat holatiga o'tish, harakat va

o'zgarishlar jarayoni. Maktabgacha ta'lim pedagogikasida rivojlanish haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda rivojlanishning o'ziga xosliklari va qonuniyatlari), individual (rivojlanishning individual o'ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”ning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana

shu nuqtai nazardan Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlari anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – bola shaxsi ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiyena – bolalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq maktabgacha ta'lim pedagogikasi g'oyalari kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi haqida ma'lumot bering?
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?
4. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari qaysilar?

2-mavzu. MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI

Mavzu rejasi:

1. Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.
2. Maktab va maktabgacha ta'limning tashkil topishi, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi maktabgacha ta'lim.
3. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.
4. Maktabgacha ta'limga doir farmon, qaror va farmoishlarni sohaga keng tatbiq etish usullari.
5. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish haqida.

**O'zbekistonda maktabgacha
ta'limning vujudga kelishi va
taraqqiyot bosqichlari**

XIX asrning 80-90 yillariga kelib Markaziy Osiyoda bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g'oyalari yetildi. O'sha davrda taraqqiyparvar mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning qismatini yengillashtirishga intiladi.

Ziyoli qatlam vakillari 1872 yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kirib, "Jamiyati xayriya" tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonlarni tashkil etishdi.

Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni, butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshdagi bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896 yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarni tuzila boshlandi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan bolalar kun bo'yi bolalar yaslida bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasli ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga (duogo'ylikka), oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, to'qishga, to'r taqishga, tikishga va boshqa hunarlarga o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi.

Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan shaharlarida yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" turidagi birinchi bolalar bog'chalari ochildi. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan sersoya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq, qayiqlar, katta arg'imchoq (ustunga osilgan) o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlari o'simliklarni parvarish qilishardi.

1891-1903 yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan. Ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903 yil fevral oyida "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilindi. To'garak Harbiy ministrlk va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshladi. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish;

3. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni(oila, maktab va bolalar bog'chasining yagona tarbiyaviy ta'sir etishini belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirishni qo'yadi.

Bu to'garakda maktabgacha seksiyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yo'q edi, shu sababli to'garak a'zolari bolalar tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishar edi.

Bolalar birinchi marta 4-yoshdan 6-yoshgacha va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'lindi. Mashg'ulotlar, o'yin va ko'ngil ochishlar programmasi belgilab qo'yildi. Harakatli o'yinlar, xor bo'lib aytiladigan ashula, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari o'rgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizim, xilma-xil ish shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'lmaganligi sababli ko'pincha bog'cha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshiriladi.

1903-1914 yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi ta'lim-tarbiya g'oyalarining jadal suratda o'sishi bilan xarakterlanadi. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi.

1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6-yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog'chalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

1917 yil 20 noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya" e'lon qilinib, unda: "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" – deyilgan edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yo'li asosida Turkiston ASSR Maorifi Xalq Komissarligi oldida davlat maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va b. mas'uliyatli vazifalar paydo bo'ldi.

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Maorif xalq komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha tarbiya bo'limlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning jonlantirishga yordam berdi.

Maktabgacha tarbiya bo'limlarining faoliyati uch asosiy yo'nalishdan:

4. Bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash;
5. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy vakillaridan kadrlar tayyorlash;
6. Ota-onalar o'rtasida tashviqot tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

"Maktabgacha tarbiya bo'limi to'g'risi"da Nizom qabul qilindi va unda bo'lim 3-yoshdan 8-yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshdagibolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi. Yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari,

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog'chalarini rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi.

O'zbekistonning tub joy aholisi bolalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918 yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4 ta bog'cha ochishga muvaffaq bo'lindi:

1-bog'cha – Shayxontoxur dahasida (Hasanova (mudira), Mahsuma Qoriyeva, Robiya Abdurashidova (tarbiyachi)

2-bog'cha – Xo'ja ko'chasida (Anvara Yausheva (mudira)

3-bog'cha – Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chada ochilgan

4-bog'cha – Beshyog'och dahasida (Qodirxonov (mudir)

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog'cha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O'sha davrda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimida jami 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921 yilga kelib bolalar bog'chalarining soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy millatlarning bolalari uchun bog'chalar 32 taga yetdi. Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko'prog'i mahalliy millatlarning farzandlari edi.

Ulug' vatan urush yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar kengaydi. 1994 yil 1-yanvariga kelib, maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimida 54 ming bola tarbiyalandi. Ana shu maqsad uchun davlat tomonidan 77 million so'm ajratildi. Bu yillarda O'zbekistonning bolalar bog'chalarida ko'chirib keltirilgan 16.000 dan ko'prog' bolalarni tarbiyalandi. Shuningdek, ota-onasiz qolgan qariyb 400 nafar bolani vasiylikka olish tamoyiliga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

3-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA TO'G'RISIDAGI QONUNI”.

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
2. Ta'lim olish huquqi.
3. Ta'lim turlari.
4. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi.

Tayanch tushunchalar: uzluksiz ta'lim, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, ta'lim turlari, maktabgacha ta'lim, ta'lim sohasidagi prinsiplar, Davlat ta'lim dasturi, ta'lim olish huquqi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan bo'lib, 2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan O'RQ-637-son bilan tasdiqlandi.

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ta'lim to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ta'lim olish huquqi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

- ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Ta'lim tizimi:

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;
- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;
- ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim turlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 7-bobida ta'lim turlari haqida ma'lumot berilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;

- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Ushbu Qonunning 8-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya haqida quyidagilar keltirilgan:

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida maktabgacha ta'lim sohasiga oid asosiy tushunchalar quyidagicha keltirilgan:

Maktabgacha bo'lgan yosh - bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to'ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya - bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti - ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi - bola tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko'nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta'lim va tarbiya mazmunining o'ziga xosligini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti - maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti - nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmui.

Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli — maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

Ushbu Qonunga ko'ra, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

- ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi.

Har bir bola maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqiga ega.

Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi.

Shungdek, ushbu Qonunga asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari quyidagicha belgilab ko'rsatilgan:

- kasbiy sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish;
- ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalari hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan ish turlariga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

- bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;
- pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'rvonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;
- o'z malakasini oshirishi;
- o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);

o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim. Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim. Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi?
2. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar nimalardan iborat?
3. Ta'lim olish huquqida nimalar kafolatlanadi?
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi qanday Qonunlar bilan belgilanadi?
5. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bir-biridan farqi nimada?

4-Mavzu: BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

Mavzu rejasi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar.
2. Tarbiyachi va pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rni.
3. Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari.
4. Tarbiyachining faoliyatlar jarayonidagi kreativligi.
5. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni.

Jahon mamlakatlari ichida AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan Career Services markazi tomonidan ish beruvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra ishtirokchilarning 74,8% qismi malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kreativlik va nostandart tafakkur tarzi bilan bog'liq sifatlarni belgilagan. Singapurdagi Nan'yang Texnologiya universiteti Biznes maktabida ham aynan shunga o'xshash so'rovnoma natijasida 62,5% ish beruvchilar bitiruvchining kreativlik sifatlarini muhim sifatlar qatoridagi uchlikka kiritishgan.

Demak, bugungi kundagi bo'lajak o'qituvchida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ulardagi ijodiy salohiyatni balkim, kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'ziga xos dolzarb yo'nalishlardan biri sanalmoqda.

Kreativlik: (ingliz tilida *create* — yaratish, *creative* — yaratilgan, ijodiy)— shaxsning yaratuvchilik, ijodiy faollik qobiliyati sifatida tushuniladi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o'zgartirishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo'lib, uning natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo'lmagan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi.

Pedagogik kreativlik: bu– pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish, amalga oshirishdagi muhim sifat bo‘lib, u o‘qituvchining bilish faoligi, nostandart tafakkur tarzi, mustaqilligi va kasbiy mahorati sifatida namoyon bo‘ladi.

Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlari muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlari muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e‘tibor markazida bo‘lib, talabalar fe‘llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe‘llarning bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularni kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta‘riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa, noan‘anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: “*bog‘liqlikni toping*”, “*yarating*”, “*bashorat qiling*”, “*fikrni mantiqan bayon eting*”, “*tasavvur qiling*” kabi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Pedagoglar birinchi yo‘lni qo‘llash – talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh o‘qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo‘l: amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, talabalarga interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo‘l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Topshiriqni bajarar ekan, talabalar mavzuga bog‘liq muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo‘lni tutishda pedagog talabalarga “Pedagogik kreativlik” mavzusida Power Point dasturi yoki multimediyaga yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi.

Talabalar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularni kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000). M: talabalar “Immigratsiya hodisasining mohiyati”ni “Aqliy

hujum” strategiyasi asosida o‘rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim.

Muayyan omillar talabalarda kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi.

5-Mavzu: MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING ISH HUJJATLARI



REJA:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i.
2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro‘yxati.
3. Umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlari.
4. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali).
5. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, patronaj va ota-onalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar).

Tayanch tushunchalar: “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonun, ish reja, tabel, filtr, potranaj, sayr, kunning ikkinchi yarmi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 2019 yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 13 maydagi 391-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ijrosini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi mas’uliyatini oshirish maqsadida “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Ushbu buyruqqa asosan, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro‘yxati

hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining ish hujjatlarini yuritilishi bo'yicha qo'llanma tasdiqlangan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro'yxati 01 dan 12 gacha indeksatsiya qilingan bo'lib, bunda yig'ma jildlar nomi, saqlanish muddati va modda raqamlari qayd etilgan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari quyidagi hujjatlar ro'yxatidan iborat:

01 - Boshqaruv hujjatlari (01-01dan 01-19 gacha)

02 - Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar (02-01 dan 02-04 gacha)

03 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari (03-01 dan 03-03 gacha)

04 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti (04-01 dan 04-04 gacha)

05 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (05-01 dan 05-05 gacha)

06 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi (06-01 dan 06-05 gacha)

07- Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari (07-01 dan 07-06 gacha)

08 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi (08-01 dan 08-05 gacha)

09 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi (09-01 dan 09-07 gacha)

10 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti til o'qituvchisi (10-01 dan 10-03 gacha)

11 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (11-01 dan 11-07 gacha)

12 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi (12-01 dan 12-07 gacha)

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlari. 05-01. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyul 2018 yilda 3032-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagibolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-onli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish" qo'llanmasi har bir tarbiyachi ishlayotgan guruh yoshiga mos ravishda ta'minlangan bo'lishi shart.

05-02. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali). Jurnalning **titul varag'idan** keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo'lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o'quv yilida o'z oldiga qo'ygan **asosiy vazifalari** yoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o'zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlari yoritiladi.

Guruh yoshiga va MTTning ish vaqtiga qarab **kun tartibi** belgilanadi. Bir oy uchun 2 ta **ertalabki badan tarbiya** komplekslari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar bilan ertalabki badan tarbiya mashqlari bajarilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Ertalabki badan tarbiya mashqlarini alohida daftarga yozib borish yoki oldindan kartotekalar tayyorlab olish maqsadga muvofiq.

Keyingi varaqlarda tarbiyachining **ta'limiy-tarbiyaviy** faoliyati aks ettirilib, hafta mavzusi, davr ko'rsatiladi. Ertalabki doirada bolalar bilan olib boriladigan qabul, suhbat, o'yinlar, ertalabki badan tarbiya kompleksining tartib raqami kiritiladi.

Markazlardagi faoliyatlarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, o'sha markaz nomi va mavzu, unga kerakli jihozlar yoziladi. Markazlardagi faoliyatlar o'zgartirilmagan holatlarda bu joy bo'sh qoladi.

Umumiy guruh bo'lib ishlash – bu frontal mashg'ulot bo'lib, unga nutq o'stirish, matematika, savodga o'rgatish, rus va o'zbek tillari, ingliz tili, jismoniy tarbiya hamda musiqa mashg'ulotlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar bilan kelishgan holda ushbu frontal mashg'ulotlarni o'tish vaqti belgilanadi va rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

Yosh tarbiyachilarga frontal mashg'ulotlarni to'liq ochib yozish, tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilarga esa frontal mashg'ulotlarni tezis sifatida yoritib berish mumkin. Frontal mashg'ulotni yozish daftari rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi va nazoratga olinadi.

Ish jurnalining **sayr** bo'limi 5 qismdan iborat. Bu qismlarda tarbiyachi eng avvalo kuzatilayotgan ob'ektni yoritishi, ob'ektga mos bo'lgan mehnat turini, harakatli o'yin, ixtiyoriy o'yinlarni rejalashtiradi. Tarbiyachi bolalarni ixtiyoriy o'yinga jalb qilgan vaqtda, asosiy harakat turlarini mustahkamlashga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ishlaydi va ularda sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg'itish, turli usullarda yurish va boshqa harakatlar bo'yicha olgan malakalarini mustahkamlaydi.

Ish jurnalidagi **kunning ikkinchi** bo'limi bolalar bilan yakka ishlash, badiiy adabiyotlar, o'yin va faoliyatlar qismlariga bo'lingan bo'lib, unda tarbiyachi bola bilan qaysi mavzuda yakka ishlashini, o'qib beriladigan, sahnalashtiriladigan, hikoya qilib beriladigan, yod olinadigan asarlar nomini, syujetli-qoidali, ta'limiy, stol ustida o'ynaladigan, rivojlantiruvchi o'yinlar, tug'ilgan kunlar, uchrashuvlar, qo'g'irchoq teatrlari, to'garaklar va boshqa ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar rejalashtiriladi.

Kechki sayrda esa tarbiyachi kuzatish, ixtiyoriy o'yinlar, ota-onalar bilan suhbat qismlarini rejalashtiradi. Jurnalning davomida **bolalar faoliyatini tashkil etishdagi o'zgarishlar** bo'limi kiritilgan bo'lib, unda tarbiyachi kun davomidagi faoliyatlarda o'zgartishlar kiritgan bo'lsa, bu haqda albatta ma'lumot yozib qo'yadi. Masalan: Kun sovuq bo'lganligi uchun rejalashtirilgan ekskursiyaning o'tkazilmaganligi. Ish jurnalida "Hafta yakuni" bo'limi bo'lib, u 4 qismdan iborat:

- **"Bolalar ilgari nimani bilishar edi?"** - Bu savolga tarbiyachi hafta davomida berilayotgan mavzular haqida bolalarning qanchalik tushunchalari borligini yozadi;

- **"Bolalar nimani bilishdi?"** - Savoliga tarbiyachi hafta davomida bolalar tomonidan markazlar va umumiy guruhlarda ishlash jarayonlarida olgan yangiliklarini yozadi;

- **"Bolalar nimani bilishni xohlaydilar?"** - Bu savolga tarbiyachi bolalarda hosil bo'lgan savollar, qiziqishlardan kelib chiqqan holdagi mavzularni kiritadi;

- **"Kelgusi haftaga g'oyalar"** - da esa tarbiyachi bolalar qiziqishlari va hoxishlari asosida tashkil etiladigan faoliyatlarni yozadi.

Ish jurnalidagi haftalik ish rejasining so'nggida rejaning qay holatda yozilganligi bo'yicha **maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati (rahbar, metodist)ning tavsiya va ko'rsatmalari** beriladi. Bu tarbiyachiga kelgusi hafta ish rejasini tuzishda metodik yordam bo'lib hisoblanadi.

Ish jurnali maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan, imzolangan, tikilgan, muhrlangan bo'lishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ushbu ish jurnali tashkilotda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjatni yuritishdan maqsad, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablarini bajarish asosida ertalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning negizi hisoblanib, bunda tarbiyachilar ta'limiy vazifalar, bolalar bilan birgalikda olib boriladigan ish shakllari, rivojlantiruvchi muhitga kiritish lozim bo'lgan o'zgartirishlarni belgilab beradi.

Rejalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, bolalarga axborot va jismoniy vazifalarni me'yorlash imkonini beradi.

Ish rejasining to'laqonli bajarilishini tahlil qilish, bolaning rivojlanish sur'atini kuzatish va ular uchun yanada qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

GURUHNING KUN TARTIBI

(o'quv yili davrida)

T.r.	TADBIRLARNING NOMI	MUDDAT
Ertalabki doira		
1	Bolalarning salomatligini tekshirib qabul qilish, o'yinlar, bolalar bilan suhbat, ertalabki badan tarbiya	
2	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	
3	Mustaqil faoliyat, o'yinlar	
4	Ta'limiy o'yin faoliyati	
Katta doira		
5	Guruhdagi bolalar bilan ta'limiy faoliyat	
6	Sayrga tayyorgarlik va sayr	
7	Sayrdan qaytish, o'yinlar	
8	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	
9	Kunduzgi uyquga tayyorgarlik, uyqu	
10	Tetiklashtiruvchi mashqlar, suv va havo muolajalari	
11	Uyqusiz vaqt (mustaqil faoliyat)	
12	Kechki choyga tayyorgarlik, kechki choy	
Kunning ikkinchi yarmi		
13	Qo'shimcha ta'lim, yakka ishlash, badiiy adabiyotlarni o'qish, ixtiyoriy o'yinlar	
Kechki sayr		
14	Kuzatish, harakatli o'yinlar, ixtiyoriy o'yinlar	

15	Ota-onalar bilan suhbat va bolalarni uyga kuzatish.	
----	-----------------------------------------------------	--

05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (**tabel, filtr, patronaj va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar**). Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr va patronaj daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar haqidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlari umumiy bitta bo'lishi yoki 4 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi quyidagicha:

Bolalar davomatini qayd etish daftari yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot rahbari oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, imzo va muhr qo'yadi.

Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Filtr daftari: Tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftari tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi (pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnoma natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi.

Bola uch kun kelmagan taqdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning muassasaga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Patronaj daftari: har bir yosh guruhida tarbiyachi tomonidan oyma-oy yuritiladi. Bola tashkilotga kelmagan kunlarning uchinchi kuni tarbiyachi oilaga tashrif buyurib (yoki telefon orqali), bolaning tashkilotga kelmaslik sababini aniqlaydi. Bola uzoq muddat kelmagan taqdirda, kelmagan kunlarning yettinchi kuni ikkinchi patronaj va o'n to'rtinchi kuni uchinchi patronajning o'tkazilishi va har bir patronaj qilingan kunning sanasi hamda kelmaslik sababi yozib borilishi lozim. Uch kun va undan ortiq tashkilotga qatnamagan bolaning tashkilotga kelgan kuni maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimi (shifokori yoki hamshirasi) tomonidan kelmagan kunlar uchun taqdim etilgan tibbiy ma'lumotnoma asosida nazoratdan o'tkazib, qabul qilishni va patronaj daftari imzo qo'yiladi. Bola keyingi oy ham tashkilotga kelmagan holatda tarbiyachi ushbu bolani yana belgilangan tartibda patronaj daftari ro'yxatga oladi. Patronaj daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari. Guruhdagi bolalarning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq va yakuniy.

Dastlabki kuzatuv o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyi mobaynida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta'lim sohalarini o'zlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratadi, bolaning qanday sifatlari qo'llab-quvvatlashni talab etishini, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Keyin bolaning ayni davrdagi yoshini hisobga olgan holda uning rivojlanish sohaları bo'yicha yutuqlari haritasi to'ldiriladi.

Oraliq kuzatuv birinchi yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar) o'tkaziladi. Bu monitoringni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to'g'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko'ra, tarbiyachi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogika jarayoniga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (may oyida) tarbiyachi yakuniy kuzatuv o'tkazadi. Mazkur kuzatuv asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Namuna

1. Rivojlanish sohasi: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish									
1.3. Sensomotorika									
	Yoshi								Izoh
	4-yil				5-yil				
	3 yosh 3 oy	3 yosh 6 oy	3 yosh 9oy	4 yosh	4 yosh 3 oy	4 yosh 6 oy	4 yosh 9 oy	5 yosh	
Katta koptoklarni o'tirgan va turgan holda ikki qo'li bilan masofaga dumalatadi									
O'ng va chap qo'li bilan koptokni galmagal yerga uradi									
Turli tuzilishlar va yuzaliklarni ajratadi									

05-05 . Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi. Ushbu hamkorlik rejasi mutaxassislar orasida o'zaro yuritilib, bir-birlarini to'ldirishga qaratilgan. Ya'ni, tarbiyachi tashkilotda faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ota-onalar, bolalar hamda xodimlar uchun turli xildagi tavsiya, mahorat maktablari, trening mashg'ulotlari, faoliyatlari davomida uchrashi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldini olish, ishlash uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha bir yillik reja tuziladi.

Ushbu rejani bajarish mutaxassislar hamkorligida amalga oshirilishi lozim.

Namuna

T.r	Reja mavzusi	Muddat	O'tkazish shakli	Bajarilganligi haqida ma'lumot
------------	---------------------	---------------	-------------------------	---------------------------------------

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari nomini ayting?
2. Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlariga nimalar kiradi va qaysi raqamlar bilan indeksatsiya qilingan?
3. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasida nimalar aks etishi kerak?
4. Umumiy guruh bo'lib ishlash mashg'ulotida qaysi mashg'ulotlar tashkil etiladi?
5. Tarbiyachi ish jurnalining sayr bo'limida nimalar aks etadi?
6. Ish jurnalida "Hafta yakuni" bo'limi bo'lib, u necha qismdan iborat va unda nimalar yoziladi?
7. Bolalar davomatini qayd etish daftarida nimalar aks etadi?
8. Tabel, filtr, patronaj haqida ma'lumot bering?

6-Mavzu: MTT TARBIYACHISINING RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATGA RAHBARLIK QILISH METODLARI.

Mavzu rejasi:

1. Rivojlanish markazlari va umumiy guruh bo'lib tashkil etiladigan ta'limiy faoliyatning bog'liqligi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etish.
3. Rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga rahbarlik qilish.

Mazkur dastur o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, o'quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Dastur idoraviy bo'ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi mumkin:

- bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo'lgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tiplardagi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun pedagog-kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta'limning muqobil shakllari xududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o'z muqobil shakllarini ishlab chiqishi mumkin.

Dastur asosiga bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari kiritildi. Dastur (kurrikulum)ning o'rgatuvchi jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta'limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta'limga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

6-7 yoshli bolalarni o'qitish majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim sektori rejasi, maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo'naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
- maktabgacha ta'limga sarf-xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda);
- umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
- ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;
- g'ayri axloqiy va jinoiy xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsad va vazifasi. Dasturning maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

➤ zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;

➤ 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehhtiyojlarini qondirishi kerak;

➤ 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan;

➤ maktab ta'limga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga;
- amaliyotga bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etishga;
- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
- ta'lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e'tiborga olish;
- qulay, do'stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;

- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
- bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni
- hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol ta'lim;
- integrativ o'qitish.

Dasturda ko'zda tutilgan vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat paytida, balki mustaqil, o'yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to'liq bajarilishi lozim.

6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarining rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgara boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi.

Psixik jarayonlarning rivojlanishi. Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. SHuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari uchrashi mumkin.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyiligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan

shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o'rgatish mumkin.

Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantiqini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyliги mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha bo'lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi.

Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o'ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu fakat yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o'ta muhimdir.

Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'la boradi. So'z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3000 ta so'z gacha boyib boradi.

Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejası"ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o'z-o'zini anglashida "Men" obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya'ni, tahlil qilishi, o'z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o'z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma'nan rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "men qila olaman" motivlarining anglanishi "men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

O'z "Men"ini anglash va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo'lishi yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – "maktab o'quvchisi o'rnini"ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy "Men"ini anglash paydo bo'ladi.

O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi

bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarini o'zlashtirishni va uni amalga oshirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar.

O'yinlar murakkablasha boradi, ba'zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo'ladi. Bunda bolalar butun o'yin maydonini to'la kuzatib turishga, o'yindagi barcha ishtirokchilarni ko'rib turishga va zaruriy o'yin harakatlariga bog'liq bo'ladigan o'z xulq-atvori yoki rolini o'zgartirib turishga qodir bo'ladilar.

6-7 yoshli bolaning muloqoti. Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya'ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki "nima bo'ldi" yoki "nima bo'ladi" tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo'ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo'ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarining tashuvchisi bo'lib sanaladi. muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o'zaro tushunish, his-tuyg'ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o'zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o'rtoqlashadi. Ota-onalar hamda pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo'lishi ifodalanadi:

muloqot tashabbusini boshlash;

birinchi yaqinlik;

biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;

musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;

sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);

guruhda bolalarning tutgan o'rni bo'yicha farqlanishi paydo bo'ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo'lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko'nikmalar bo'lib quyidagilar sanaladi:

➤ bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o'zlashtirilishi;

➤ boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;

➤ "maktab o'quvchisi ichki hissiyoti"ning shakllanishi, ya'ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to'la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo'lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o'zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o'rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o'quvchisi pozitsiyasi shakllanadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o'qishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofda dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda

egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak.

Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamalik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalar bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi.

- **Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:**
- har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallari.
- **Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi:** teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatisatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atributlari.
- **Til va nutq markazi:** didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari.
- **Ilm, fan va tabiat markazi:** atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo'yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'yin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.
- **San'at markazi:** tasviriy faoliyat zarur jihozlar, xalq hunarmandchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti,

madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Markazlardagi bolalar faoliyati: o'yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, samarali, musiqiy va badiiy.

Pedagogning faoliyati:

- bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o'rgatish;
- mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyoj, o'rganish va rag'batlantirish, shu bilan birga sub'ekt bo'lish;
- Bolalar bilan birga uyushgan tadbirlar tashkil etish;
- qiyinchiliklar yuzaga kelganda, bolaga beg'araz va o'z vaqtida og'zaki va amaliy yordam ko'rsatish;
- bolaning shaxsiy qiziqishini rag'batlantirish;

Rivojlanish markazlarida o'quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o'qish, ensiklopedik adabiyotlarni o'qish, ko'rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish.;

Bolaning rivojlanishi faqat o'quv faoliyatida emas, balki o'yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o'yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e'tibor qaratadi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to'ldiradi yoki o'zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta'minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o'z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo'lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta'lim asosida yotadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kimning tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi?
2. "Ilm yo'li" variativ dasturi qanday hujjat bo'lib sanaladi?
3. Dastur qayerlarda qo'llanilishi mumkin?
4. Bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhdagi namunaviy kun tartibi qanday?

7-Mavzu: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM TARBIYASI.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog'lom rivojlanishidagi ahamiyati.

3. Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Bolalarning tarbiya ga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament – lotincha “temperamentum”, ya'ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)¹.

Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim.

Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yi 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yi 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yi 64 sm bo'ladi.

Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo'lgan davrda dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a'zolari go'dakni to'g'ri parvarish qilishni yo'lga qo'yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo'lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to'g'ri talaffuz qilib, ularning nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun keng yo'l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o'z holiga tashlab qo'ymasligi, ya'ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya'ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.

¹ Илк кадам таянч дастури. – Т., 2010. – Б.5.

Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgaralar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgaralar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg., bo'yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z hatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltirilgan.

O'rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo'yi bu davrda 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko‘lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta‘lim olishga o‘qishga ishtiyoq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta‘lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta‘lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta‘lim berish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatleri olti yoshli bolalarga ta‘lim va tarbiya berish uchun loyiq bo‘lganda, u olti yoshli bolalarni o‘qitish huquqiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o‘qitadigan o‘qituvchilar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta‘lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. “Individ”, “shaxs”, “individuallik” tushunchalarini sharhlang.
2. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nega qarg‘a o‘rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog‘i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o‘rtacha 60-70 yil umr ko‘radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?
3. Quyida keltirilgan jummalarni o‘qing va jumlagi mos keladigan bir so‘z bilan ifodalanadigan javobni toping.

8-Mavzu: Bola shaxsini rivojlanish omillari.

Reja:

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxs rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, ta‘lim-tarbiya.
3. Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o‘rni.
4. Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o‘rni.

Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha

«Shaxs» - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub‘ekti va ob‘ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs – muayyan jamiyatning a‘zosi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta‘sir kuchi hamisha ham bir xil bo‘lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta‘sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta‘lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o‘sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vazinning ortishi, sezgi a'zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'likdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

9-Mavzu: Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.

Reja:

1. Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.
3. Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining

paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlarni birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda: insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Arastu, Aflotunlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadilar. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, degan g'oyani ilgari suradilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak,

odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv – shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi.

10-Mavzu: Takomillashtirilgan “Ilk qadam”davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarida ta'lim jarayonlarini tashkil qilish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim shakli. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari .

2. Mashg'ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati. Mashg'ulot jadvali tuzish talablari.
3. Mashg'ulotda tarbiyachining yetakchilik roli.
4. Mashg'ulotga tarbiyachining innovasion yondashuvi.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ “Илк кадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури Тошкент – 2018 йил 2 Муаллифлардан: Дастур муаллифлари Ўзбекистондаги ЮНИСЕФ Халқаро болалар жамғармасига ва, шу жумладан, мазкур дастурни ишлаб чиқишда ўз фикр-мулоҳазалари ва тавсияларини тақдим этган ҳамда уни қўллаб-қувватлаган барча инсонларга самимий миннатдорчилик билдирадилар: Анна Голубева ЮНИСЕФ халқаро консултанти Дипа Шанкар ЮНИСЕФ таълим секцияси раҳбари Вазира Назарова ЮНИСЕФ илк ёшдаги болалар ривожланиши ва таълими буйича маслаҳатчиси Юлия Нарольская ЮНИСЕФ таълим масалалари буйича маслаҳатчиси Муазам Исмаилова ЮНИСЕФ консултанти Ли Донг Вук Пучон (Жанубий Корея) университети профессори Муаллифлар: И.В. Грошева, Л.Г.Евстафьева, Д.Т.Махмудова, Ш.Б.Набиханова, С.В.Пак, Г.Э.Джанпеисова Тақризчилар: А.Голубева ЮНИСЕФ халқаро эксперти Н.Н.Джамилова Педагогика фанлари номзоди, Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университетининг мактабгача таълим услуги кафедраси доценти Л.Р. Мирджалалова Педагогика фанлари номзоди, Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети қошидаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказининг «Мактабгача, бошланғич ва махсус таълим методикаси» кафедраси доценти М.А. Исмаилова Тиббиёт фанлари номзоди, Тошкент педиатрия тиббиёт институтининг неонатология кафедраси доценти Е.Г. Каялова Тошкент шаҳридаги 247-сонли давлат мактабгача таълим муассасаси мудирини Масъулиятчи чеклаш Мазкур ҳужжатдан жой олган фикр ва мулоҳазалар фақат унинг муаллифларигагина тегишли ва асло Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Болалар жамғармаси (ЮНИСЕФ), у билан боғлиқ бўлган ташкилотлар ёки унинг бошқарув аъзолари ҳамда улар номидан иш юритадиган мамлакатларга берилиши мумкин эмас. Дастур Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлигининг 2018 йил 7 июлдаги 4-сонли ҳайъат йиғилиши қарори билан тасдиқланган ва нашр қилиш учун тавсия этилган.

3 Мундарижа

1-боб.	Умумий
қоидалар.....	4 1.2.
МТМнинг мақсад ва вазифалари	4
2-боб. МТМ таълим жараёнининг мақсад ва тамойиллари	
.....	5 2.1. МТМ таълим жараёнининг
мақсадлари.....	5 2.2. МТМда таълим
жараёнини ташкил қилиш тамойиллари	5 2.3. Қўшимча
таълим хизматларини ташкил қилиш	6 2.4.
Алоҳида эҳтиёжга эга бўлган болалар учун мўлжалланган таълим фаолияти	6
2.5. Ота-оналар билан хамкорлик	
.....	6 3-боб. Мактабгача ёшдаги

болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув.....	6	3.1. Мактабгача ёшдаги (6-7 ёш) боланинг умумий муҳим компетенциялари	7	3.2. Боланинг ривожланиш соҳалари компетенциялари	7
3.2.1. «Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш» соҳаси компетенциялари.....	7	3.2.2. «Ижтимоий-ҳиссий ривожланиш» соҳаси компетенциялари.....	8	3.2.3. «Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари» соҳаси компетенциялари	8
3.2.4. «Билиш жараёнининг ривожланиши» соҳаси компетенциялари	8	3.2.5. «Ижодий ривожланиш» соҳаси компетенциялари	9	4-боб. Ўқув-тарбиявий фаолият.....	9
4.1. Ўқув-тарбиявий фаолиятни режалаштириш.....	9	5-боб. Боланинг ривожланиш соҳалари бўйича ютуқлари.....	11	6-боб. Ривожлантирувчи муҳитни ташкил қилиш.....	12
.....	12	7-боб. Иловалар	13	1-илова	13
.....	13	МТМ таълим дастурини тузиш бўйича тавсиялар.....	13	2-илова	18
.....	18	Болалар тўлиқ кун мобайнида бўладиган гуруҳнинг намунавий кун тартиби	18	Болалар қисқа муддатда бўладиган гуруҳнинг намунавий кун тартиби	
Ошибка! Закладка не определена.		3-илова	21	Намунавий ўқув дастури	21
.....	21	4-илова	25	Йиллик мавзувий режа намунаси	25
.....	25	5-илова	28	Намунавий ҳафталик иш режа	28
.....	28	6-илова	30	3 дан 7 ёшгача бўлган боланинг ривожланиш харитаси	30
.....	30	3 дан 5 ёшгача бўлган боланинг ривожланиш харитаси	31	5 дан 7 ёшгача бўлган боланинг ривожланиш харитаси.....	44
.....	44	4 7-илова.....	58	6-7 ёшдаги боланинг мактабга тайёрлик харитаси	58

1-боб. Умумий қоидалар Мактабгача таълим муассасасининг давлат ўқув дастури (қуйида: «МТМ давлат ўқув дастури») Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшидаги болаларни ривожланишига қўйиладиган Давлат талабларига мувофиқ ишлаб чиқилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжат бўлиб, унда мактабгача таълим муассасасининг мақсад ва

вазифалари, ўқув-тарбиявий фаолиятнинг асосий ғоялари ифодаланган, шунингдек, боланинг таълимнинг кейинги босқичига ўтишидаги асосий компетенциялари белгиланган. МТМ давлат ўқув дастури Ўзбекистон Республикаси ҳудудида жойлашган қуйидаги таълим муассасаларида қўллаш учун мажбурий: • давлат мактабгача таълим муассасалари; • мактабгача таълим соҳасида хизмат кўрсатувчи нодавлат муассасалари; • мактабгача ёшдаги болалар гуруҳларига эга бўлган «Меҳрибонлик» болалар уйлари; • мактабгача ва бошланғич таълимни назорат қилувчи бошқарув органлари.

1.1. МТМда давлат ўқув дастурини қўллаш МТМ давлат ўқув дастури вариатив ўқув дастурларини яратишда мажбурий таянч ҳужжат ҳисобланади. Таълим муассасалари Мактабгача таълим вазирлиги томонидан тасдиқланган вариатив ўқув дастурларидан фойдаланиш ҳуқуқига эга. Мактабгача таълим муассасаси давлат ўқув дастури асосида ўзининг МТМ ишчи ўқув дастурини ишлаб чиқиш ҳуқуқига эга. Таълим муассасасининг ишчи ўқув дастури муассаса педагоглари томонидан ота-оналарни жалб этган ҳолда тузилади ва амалдаги қонунчилик тартибида тасдиқланади¹.

1.2. МТМнинг мақсад ва вазифалари МТМнинг мақсад ва вазифалари қуйидагилардан иборат: • боланинг индивидуал эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда илк ва мактабгача ёшдаги болаларни ривожланишига қўйилган Давлат талаблари асосида ҳамда МТМ давлат ўқув дастурига мувофиқ унинг ҳар томонлама ва баркамол ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар¹ Давлат ўқув дастурга 1-илова 5 яратиш; • мактабгача ёшдаги болаларнинг ўқув-тарбиявий фаолиятини ташкил қилиш ва амалга ошириш; • болаларнинг илк ривожланиши масалаларида ота-оналар ва жамиятга тегишли билимлар беришни ташкил этиш ва амалга ошириш; • болаларнинг илк ривожланиши масалаларида оила ва жамият билан ўзаро ҳамкорликни ташкил қилиш ва амалга ошириш.

2-боб. МТМ таълим жараёнининг мақсад ва тамойиллари

2.1. МТМ таълим жараёнининг мақсадлари Ўқув-тарбиявий жараённинг мақсади болаларда умумий асосий компетенциялар ва ривожланиш соҳалари компетенцияларини шакллантириш учун тегишли шароитлар яратишдан иборатдир.

2.2. МТМда таълим жараёнини ташкил қилиш тамойиллари МТМ таълим жараёнининг тамойиллари қуйидагилардан иборат: • бола ҳуқуқлари, ўзига хос ривожланиш хусусиятлари ва салоҳиятларини ҳисобга олиш; • таълим жараёнида барча турдаги ривожланиш соҳаларининг ўзаро боғлиқлиги; • бола саломатлигини асраш ва мустаҳкамлаш, унинг эҳтиёжлари, шу жумладан, унинг ҳаракатланиш эҳтиёжларини қондириш; • боланинг ижодий қобилиятларини қўллаб-қувватлаш; • ўйин орқали таълим бериш ва ривожлантириш; • боланинг ривожланиши ва ижтимоий мослашиши учун қулай муҳит яратиш; • бола учун хавфсиз муҳитни таъминлаш; • МТМнинг оила, маҳалла ва мактаб билан ҳамкорлиги; • миллий маданий анъаналар қадриятини ошириш ва бошқа миллатлар маданиятига ҳурмат, бошқа миллатлар маданиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш; Боланинг мактабгача таълим муассасасидаги ривожланишини қўллабқувватлаш жамоавий иш ҳисобланади ва унинг амалга оширилиши учун мактабгача таълим муассасаси раҳбари жавобгар бўлади.

6 2. 3. Қўшимча таълим хизматларини ташкил қилиш Қўшимча таълим хизматлари мактабгача таълим муассасаси томонидан имкониятлардан келиб чиққан ҳолда болалар ва аҳоли эҳтиёжларига мос равишда ташкил этилади. Қўшимча таълим хизматлари факультатив ҳисобланади ва уларни ташкил қилишда кўнгиллилар (волонтерлар), ота-оналар ва ҳомийлар иштирок этиши мумкин.

2.4. Алоҳида эҳтиёжга эга бўлган болалар

учун мўлжалланган таълим фаолияти Мактабгача таълим муассасасида алоҳида эҳтиёжга эга бўлган болаларни қўллаб-қувватлаш жамоавий иш ҳисобланади ва уни амалга ошириш учун мактабгача таълим муассасаси раҳбари жавобгар бўлади. Зарурат туғилганда, педагоглар таркиби ва мактабгача таълим муассасаси раҳбарияти, тор ихтисосликдаги мутахассисларни жалб этган ҳолда, бола (унинг ривожланиши) учун ўқув-тарбиявий жараённинг яқка тартибдаги режасини тузади.

2.5. Ота-оналар билан ҳамкорлик Боланинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлаш учун мактабгача таълим муассасаси ота-оналар билан ўзаро ҳамкорликнинг қуйидаги шакллари ташкил қилиши мумкин:

- ота-оналарнинг мактабгача таълим муассасаси борасидаги фикрларини ҳисобга олиш;
- илк ривожланиш масалаларида ота-оналарга билим бериш;
- ота-оналарни ўқув-тарбиявий жараёнда фаол қатнашишга жалб этиш;
- ота-оналарнинг муассаса ҳаётида иштирок этиш борасидаги ташаббусларини қўллаб-қувватлаш.

3-боб. Мактабгача ёшдаги болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув

Мактабгача ёшдаги болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув ўсиб бораётган бола шахсини ҳаётга тайёрлаш, унда ҳаётий муҳим масалаларни ҳал қилиш учун зарур бўлган, ахлоқий меъёр ва қадриятларни ўзлаштириш, бошқа инсонлар билан мулоқот қилиш, «Мен» образини қуриш билан боғлиқ бўлган фаолият усуллари шакллантиришга тайёргарликни кўзда тутати. Бошланғич муҳим компетенциялар боланинг фаолият ва ахлоқ субъекти сифатидаги яхлит ривожланишини талаб этади.

7 Компетенция боланинг билим, кўникма, малака ва қадриятлари мажмуидир. Бошланғич компетенциялар, ривожланиш соҳасидан қатъи назар, бола шахси шаклланиши учун асос бўлиб хизмат қилади.

3.1. Мактабгача ёшдаги (6-7 ёш) боланинг умумий муҳим компетенциялари

Коммуникатив компетенция – мулоқот воситаларидан турли вазиятларда фойдалана билиш кўникмаси. Ўйин компетенцияси – боланинг ўйин жараёни ва уни ташкил қилишда тажриба, билим ва кўникмалардан ижодий фойдаланиши. Ўқув-тарбиявий жараён учун асос ҳисобланади. Ижтимоий компетенция – ҳаётий вазиятларда катталар ва тенгдошлар билан мулоқотда ахлоқ қоидалари ва меъёрларига риоя қилган ҳолда ўзини тута олиш маҳорати. Билиш компетенцияси – атрофдаги оламни онгли равишда идрок қилиш ва олинган билим, кўникма, малака ва қадриятлардан ўқув ва амалий вазифаларни ҳал қилиш учун фойдаланиш.

3.2. Боланинг ривожланиш соҳалари компетенциялари

Боланинг компетенциялари бола ривожининг қуйидаги соҳаларида белгиланади:

- жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзининг шаклланиши;
- ижтимоий-ҳиссий ривожланиш;
- нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари;
- билиш жараёнининг ривожланиши;
- ижодий ривожланиш.

3.2.1. «Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш» соҳаси компетенциялари

«Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзининг шаклланиши» соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият яқунланганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

- ўз имкониятлари ва ёши билан боғлиқ жисмоний ривожланиш меъёрларига мос равишда жисмоний фаоллик кўрсатади;
- турли ҳаракатчанлик фаоллигини уйғун равишда ва мақсадли бажаришни билади;
- турли ҳаётий ва ўқув вазиятларида майда моторика кўникмаларидан фойдаланади;
- ўз ҳаракатларини ҳиссиёт ва сезги органлари ёрдамида бошқаради;
- шахсий гигиена малакаларини қўллайди;
- соғлом турмуш тарзи ва овқатланиш асосларини билади;
- хавфсиз ҳаётий фаолият асослари қоидаларига риоя қилади.

3.2.2. «Ижтимоий-ҳиссий ривожланиш» соҳаси компетенциялари

«Ижтимоий-

хиссий ривожланиш» соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола: • ўз «Мен»и ва бошқа инсонларнинг ҳаётий фаолият муҳитидаги роли тўғрисида тасаввурга эга бўлади; • ўз хиссиётларини бошқаради ва уларни вазиятга мос равишда ифодалайди; • ўзгаларнинг хиссиётларини фарқлайди ва уларга мос равишда жавоб беради; • катталар ва тенгдошлар билан вазиятга мос равишда мулоқот қилади; • мураккаб вазиятлардан конструктив чиқиш йўллари топади. 3.2.3. «Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари» соҳаси компетенциялари «Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари» соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола: • нутқни эшитади ва тушунади; • ўз нутқида тўғри талаффуз, қулай грамматик шакллар ва хилма-хил гап конструкцияларидан фойдаланади; • иккинчи тилни ўрганишга қизиқиш намоён қилади; • иккинчи тилни эгаллаш бўйича дастлабки билимларини кўрсатади; • бадий адабиёт асарларига қизиқиш намоён қилади; • сўзнинг луғавий, бўғинли ва фонетик тузилиши тўғрисида тасаввурга эга бўлади; • турли маъно шаклларини мустақил равишда тузиш ва сўзлаб беришни билади; • ёзишнинг дастлабки малакалари ва воситаларидан фойдаланишни билади. 3.2.4. «Билиш жараёнининг ривожланиши» соҳаси компетенциялари Билиш жараёнининг ривожланиши соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола: • билим олишга фаол қизиқишни намоён этади; 9 • ўқув ва ҳаётий фаолият учун ахборотни мустақил равишда топади ва ундан фойдаланади; • предметлар, воқеалар ва кўринишлар ўртасидаги оддий алоқаларни тушунади ва уларни яхлит бир бутунлик сифатида идрок қилади; • рақамлар, ҳисоб-китобни билади ва уларни ҳаётда қўллайди; • макон, шакл ва вақтга мос равишда иш тутаяди; • элементар математик ҳисоблашларни амалга оширади; • атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва кўринишларни кузатади ҳамда тадқиқ қилади; • атроф-муҳитга нисбатан эҳтиёткорона ва ғамхўр муносабатни намоён этади. 3.2.5. «Ижодий ривожланиш» соҳаси компетенциялари «Ижодий ривожланиш» соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола: • санъат ва маданиятга қизиқишни намоён қилади; • миллий анъаналарни қадрлайди ва уларни кундалик ҳаётининг бир қисми сифатида идрок этади; • санъатнинг муайян турини афзал кўришини мустақил равишда ифодалайди; • олинган билим ва кўникмалардан турли ҳаётий вазиятларда ўз ижодий режаларини тузиш ва татбиқ қилиш учун фойдаланади; • инсоннинг дунёни ўзгартиришдаги яратувчанлик ролини тушунади. 4-боб. Ўқув-тарбиявий жараён Ўқув-тарбиявий жараён «Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган давлат талаблари» асосида амалга оширилади. Мактабгача таълим муассасаси ўқув-тарбиявий жараёни ўқув йили бўйича ташкил қилади. Ўқув йили 2 сентябрда бошланади ва 31 майгача давом этади. 1 июндан 31 августгача МТМда ёзги соғломлаштириш даври ташкил этилади. 4.1. Ўқув-тарбиявий жараёни режалаштириш Ўқув-тарбиявий жараён гуруҳнинг кундалик иш тартибига таянади ва унда педагог томонидан режалаштирилган кундалик ҳаракатлар, болалар ўйинлари, 10 бўш вақт ва ўқув-тарбиявий фаолият турлари навбатма-навбат амалга оширилади². Ўқув-тарбиявий жараён таълим ва ижтимоий эҳтиёжлар (саломатлик, овқатланиш ва хавфсизлик)ни қондириш мақсадида боланинг ёши ва индивидуал ривожига асосланувчи ўқув режага мувофиқ олиб борилади. Ўқувтарбиявий жараён бола ҳаёти ва унинг атрофидаги муҳитдан келиб чиқувчи ягона бир бутун мавзуга бирлаштирилади³. Ўқув-тарбиявий жараёни режалаштириш таълим шароитларига

боғлиқ ҳолда интеграция, хилма-хиллик ва мослашувчанлик тамойилларидан таркиб топади. Ўқув-тарбиявий жараёнда куйидаги режалаштириш турлари қўлланилади: •йиллик мавзувий; •ҳафталик Режалаштиришда таълим жараёнининг мавзуси, мақсадлари, мазмуни ва турлари ёритилади. Жараён турларини танлашда нафақат ўқув-тарбиявий жараённинг умумий мақсадлари, балки ривожланиш соҳалари бўйича мақсадлар, фаолият мазмуни ва турларини интеграциялаш ҳам ҳисобга олинади. Режалаштиришда кун тартибини ҳисобга олиш зарур. Кун тартиби иш суръатини белгилайди ва болага бир фаолиятдан бошқасига осон ўтишда ёрдам бериши лозим. Шунини ёдда тутиш жоизки, ўйин мактабгача ёшдаги болаларнинг асосий фаолияти ҳисобланади. Кун тартибини тузишда кундузги уйку, дам олиш вақти ва сайрга чиқиш вақти ҳисобга олинади. Йиллик мавзувий режа Йиллик мавзувий режада ҳар бир ёш гуруҳи учун ой мавзулари ва ҳафта мавзулари акс эттирилади. Мактабгача таълим муассасаси ҳудуд ёки бошқа хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ўзининг йиллик мавзувий режасини тузишга ҳақли. Мазкур мавзувий режа мактабгача таълим муассасасининг Педагогика кенгашида тасдиқланади⁴. Ҳафталик режа Ҳафталик режа йиллик мавзувий режага асосланади ва ҳафтанинг кичик мавзулари, шунингдек, мазкур мавзу бўйича ўтказиладиган тадбирларни ўз ичига олади. Ҳафталик режа барча ривожланиш соҳалари бўйича мақсадларни белгилаш, тегишли марказларни тайёрлаш, машғулотларни ҳафта мавзусига мос равишда тақсимлашга йўналтирилган. Ҳафта мавзуси барча эркин фаолият марказлари орқали ўтиши лозим. Ҳафталик режада гуруҳдаги ва сайр вақтидаги 2 Давлат ўқув дастурига 2-илова 3 Давлат ўқув дастурига 3-илова 4 Давлат ўқув дастурига 4-илова 11 дидактик ва ҳаракатли ўйинлар режалаштирилади⁵. Болалар билан олиб бориладиган ишнинг мазмуни ва изчиллиги фаолият тури (фаол фаолият/ пассив фаолият; индивидуал фаолият/ кичик гуруҳда, катта гуруҳда; тарбиячи раҳбарлиги остида ўтадиган фаолият/ бола раҳбарлиги остида ўтадиган фаолият) ва уни ўтказиш жойи (хона ичидаги фаолият/ кўчадаги фаолият)ни ҳисобга олган ҳолда режалаштирилиши керак. Ҳафталик режа хилма-хил ва мослашувчан бўлиши лозим. Бошқача айтганда, об-ҳаво ўзгариши ва боланинг қизиқувчанлигини ҳисобга олган ҳолда, режалаштириладиган фаолият бошқасига алмаштирилиши ёки фаоллик вақти бироз кўпроқ ёхуд камроқ вақтга мўлжалланиши мумкин. Масалан, агар тарбиячи баҳорда гуллаган боғга боришни режалаштирган бўлса-ю, об-ҳаво жуда ёмғирли бўлса, бу тадбирни хонада ўтказишнинг имкони бўлган бошқа тадбирга алмаштирилиши мумкин. Ҳафталик режа – бу тарбиячининг иш журнали ва машғулотлар ишланмасидан иборат. Тарбиячининг иш журнали куйидаги бўлимлардан ташкил топади: • титул варағи; • гуруҳнинг ўқув йили ва ёзги мавсумдаги кун тартиби; • эрталабки бадантарбия комплекси; • гуруҳда сентябрдан августгача бўлган таълим жараёнини режалаштириш таркибига эрталабки суҳбат, сайр, куннинг иккинчи ярми, ота-оналар билан суҳбат киради; • ҳафталик иш таҳлили; • иловалар. Машғулотлар ишланмасида мақсадлар, жараённинг қисқача таърифи, зарурий жиҳозлар ифодаланади. Мазкур ишланмалар тавсиявий характерга эга ва тарбиячи томонидан ижодий ўзгартирилиши мумкин. 5-боб. Боланинг ривожланиш соҳалари бўйича ютуқлари Мазкур дастур бола ривожига индивидуал ёндашув, унинг шахсини ҳурмат қилиш, унинг манфаатлари, эҳтиёжлари ва ривожланиш даражасини ҳисобга олиш, ҳиссий қулайлик борасида ғамхўрлик қилиш, эркин ижодий ўзўзини кўрсатиши учун шароитлар яратишга

интилишни кўзда тутди. Шу сабабли, режалаштириш билан бир қаторда, бола ривожланишини кузатиб бориш педагог фаолиятида муҳим аҳамият касб этади. Педагог болани ва унинг ўзини тутиши сабабларини яхшироқ тушуниш, бола ривожини, унинг ички дунёсини кўриш, қўллаб-қувватлаш, ривожланиш йўлларини белгилаш, 5 Давлат ўқув дастурга 5-илова 12 эҳтиёж ва манфаатларини аниқлаш учун бола ҳаётини систематик кузатиб боради. Педагогик кузатувлар асосида таълим жараёнини режалаштириш амалга оширилади ва такомиллаштириб борилади. Боланинг индивидуал ривожланишини кузатиш учун Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган Давлат талабларида акс эттирилган соҳалар ва кичик соҳалар ҳамда кутилаётган натижалар (малака ва кўникмалар) олинган. Боланинг ривожланиш харитаси 3 дан 7 ёшгача бўлган даврни ўз ичига олади, ҳар бир бола учун индивидуал тарзда йилига уч марта тўлдирилади. Мактабгача таълим муассасасидан чиқишда 6-7 ёшдаги боланинг мактабга тайёрлик харитаси тўлдирилади (фақат мактабгача таълим муассаса битирувчилари учун). Мактабга тайёрлик деганда болада умумий компетенцияларни ва ривожланиш соҳалари компетенцияларининг шаклланиши тушунилади. Бу харита мактабгача таълим муассасасининг ҳар бир битирувчиси учун тўлдирилади. Унда Давлат дастурига мувофиқ ривожланишнинг бешта соҳаси (бола компетенциялари) бўйича кутилаётган натижалар ифодаланади. Тарбиячига у ёки бу натижа қандай даражада акс этаётганини белгилаш таклиф этилади. Ривожланишнинг бешта соҳаси (бола компетенциялари) умумлаштирилади ва тавсия ҳамда таклифлар кўринишида ота-оналар эътиборига ҳавола этилади. 6-боб. Ривожлантирувчи муҳитни ташкил қилиш Мактабгача таълим муассасасида ривожлантирувчи муҳитни ташкил этишда болаларнинг ўзига хос белгиларга эга бўлган ёшга доир хусусиятлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиш муҳим аҳамият касб этади. Ривожлантирувчи муҳит мазмуни: мактабгача таълим муассасасининг кўргазмали-ривожлантирувчи муҳити мазмуни маданий-тарихий қадриятлар: миллий ва ҳудудий анъаналар; табиат, иқлимдан келиб чиқувчи хусусиятларга мос бўлиши лозим; муҳит мазмуни бирламчи дунёқараш асосларини шакллантириш, боланинг муваффақиятли ижтимоий мослашувига ёрдам бериши лозим. 6 Давлат ўқув дастурига 6-илова 7 Давлат ўқув дастурига 7-илова 13 7-боб. Давлат ўқув дастурига иловалар 1-илова МТМ таълим дастурини тузиш бўйича тавсиялар Таълим дастури (қуйида – Дастур) – МТМ Давлат ўқув дастурига асосан муайян ёш гуруҳида ташкил этиладиган таълим жараёнини амалга оширишга хизмат қилувчи муҳим ҳужжат бўлиб, у қўйилган мақсадларга эришишни таъминлаши лозим. Дастур – муҳим восита бўлиб, унинг ёрдамида тарбиячилар (мутахассислар) Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талабларига мувофиқ муайян ёш гуруҳидаги болалар учун энг мақбул ва самарали шакллар, методлар ва таълим жараёнини ташкил қилиш йўлларини белгилайдилар. Дастур мажбурий қисм ва таълим жараёни иштирокчилари томонидан шакллантириладиган қисмдан ташкил топади. Ҳар икки қисм илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талабларини амалга ошириш нуқтаи назаридан ўзаро бир-бирини тўлдирувчи ҳамда зарурий ҳисобланади. Дастурнинг мажбурий қисми барча бешта таълим соҳаси: жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш; нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш кўникмалари; билиш

жараёнининг ривожланиши; ижтимоий-ҳиссий ривожланиш ҳамда ижодий ривожланишни амалга оширишга комплекс ёндашувни кўзда тутати. Дастур тарбиячи (мутахассис) илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари асосида болалар ривожланишининг муайян шароитлари, эҳтиёжлари ва хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таълимнинг индивидуал педагогик моделини қандай яратаетганини кўрсатиб бериши лозим. Дастур учта асосий бўлимни қамраб олади: • мақсадли – бу тушунтириш хати ҳамда дастур ўзлаштирилишининг режалаштириладиган натижаларини ўз ичига оладиган бўлим; • мазмунли – бу Дастурнинг умумий мазмунини ифодаловчи ва болалар шахсининг тўлақонли ривожланишини таъминловчи бўлим; • ташкилий – бу Дастурнинг моддий-техник таъминоти таърифини, таълим ва тарбиянинг методик материаллар ва воситалар билан таъминланганлигини, кун тартибини, шунингдек, тадбирлар, байрамлар, ривожлантирувчи муҳитни ўз ичига оловчи бўлим. Дастур МТМнинг педагогик кенгашида муҳокама қилинади ва мудир буйруғи билан тасдиқланади. 14 Ўқув дастурининг намунавий тузилмавий элементлари 1. . Титул варағи

Мактабгача таълим муассасаси номи Педагогик кенгаш томонидан қабул қилинди: Баён № _____ сана _____ Тасдиқланди: МТМ мудир: (ФИО) Сана _____ № мактабгача таълим муассасаси ДАСТУРИ Тузувчи: Фамилия, исм, отасининг исми _____ Малака тоифаси _____ Педагогик стажи _____ Лавозими _____

20__ йил 15 16 2. Мундарижа саҳифалар кўрсатилган ҳолда Дастурнинг барча қисмлари, параграфлар, бўлимлар номи, адабиётлар ва иловалар рўйхати, матнда мавжуд бўлган барча сарлавҳаларни ўз ичига олади. Уларнинг таърифи иш мазмунига тўлиқ мос келиши, қисқа, аниқ ва изчил бўлиши ҳамда унинг ички мантикий қонуниятларини аниқ ифодалаш лозим. 3. Мақсадли бўлим таркибига тушунтириш хати қиради ва унда Дастур ишлаб чиқилишига асос бўлган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, шунингдек, таълим жараёнини ташкил қилишнинг турли шакллари, методлари ва йўллари кўрсатилиши муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, қуйидагилар ҳам таърифланиши лозим: • дастур бўйича таълим олаётган тарбияланувчиларнинг ёшга оид руҳий ва индивидуал хусусиятлари; • дастурнинг мақсади; • дастурнинг вазифалари; • дастурни амалга ошириш муддати; • асосий тамойиллар; • бола шахсининг асосий тавсифлари. Дастурнинг мақсадли йўналишлари таърифи мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури ҳамда Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган Давлат талабларининг мақсадли йўналишларига мос келиши лозим. 4. Мазмунли бўлимга бола ривожининг бешта таълим соҳаси йўналишларига мос равишдаги таълим фаолиятининг таърифи қиради: таълим соҳасининг вазифалари, таълим фаолиятининг мазмуни, таълим фаолиятининг натижалари, минтақавий таркибий қисм (компонент), таълим соҳасини амалга ошириш бўйича таълим фаолиятини ташкил қилиш шакллари. Комплекс-мавзувий режалаштириш (барча бешта таълим соҳасини амалга оширишни ҳисобга олган ҳолда). Мазкур кичик бўлимнинг таърифи интегратив моделни кўзда тутати ва у ҳафта мавзусини фаолиятнинг турли кўринишларида, шаклларида, таълим жараёнининг барча иштирокчилари билан биргаликда очиб беради. Дастурда ифодаланган комплекс-мавзувий режалаштиришнинг таркибий қисми жадваллар кўринишида тақдим этилиши мумкин. Комплекс-мавзувий

режада дастурдаги бўлимлар ва мавзуларни ўрганиш кетма-кетлиги очиб берилади. Таълим фаолиятининг тақсимоли, болалар билан ишлаш шакллари ва якуний тадбирлар кўрсатилади. 5. Ташкилий бўлим. Мазкур бўлимда кун тартиби, ўқув йили тузилмаси, таълим фаолияти жадвали (меъёрий ҳужжатларга мувофиқ), ёшни ҳисобга олган ҳолда ривожлантирувчи муҳитни ташкил қилиш, тарбияланувчиларнинг ёши ва индивидуал хусусиятлари, уларнинг таълим эҳтиёжлари ва қизиқишларини ҳисобга олган равишда Дастурни амалга оширишининг турли шакллари, метод ва воситаларининг қисқача таърифи берилади. Шунингдек, турли хилдаги фаолиятнинг ўзига хос руҳий-педагогик хусусиятлари, тарбияланувчиларнинг оилалари билан ўзаро ҳамкорлик турлари ифодаланиши мумкин. 17 6. Дастурни амалга ошириш шартлари: • моддий-техник таъминот; • ўқув-методик таъминот (дастурлар, технологиялар, ўқув қўлланмалари, илмий-методик ва ўқув-методик адабиёт, болалар

11-Мавзу: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnatni tashkil etish shakllari.

Reja:

1. О'z-o'ziga xizmat qilish, topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, qo'l mehnati, navbatchilik, jamoa mehnati.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil qilish.

Mehnat jarayonini rejalashtirish Mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olish – Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnati jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar. Masalan, tikishda ipni o'lchab kesib olish, ninaga o'tkazish, uchini tugish, tikish; o'yinchoq yasash uchun egish, bukish, tahlash, burchaqlarini bukish, qirqish, tikish kabi mehnat harakatlarini egallab olishlari kerak bo'ladi. Bu ish harakatlarini ma'lum tartib bilan bajarish uchun har bir bola o'z mehnat faoliyatini rejalashtirib o'rganishi kerak.

Avvaliga mehnat faoliyatini rejalashtirib olishni bolalarga tarbiyachi o'rgatadi: mehnat maqsadini tushuntiradi, keraqli materiallarni, mehnat qurollarini tanlaydi va uni har bir bola oldiga tayyorlab beradi va bolalarga mehnat faoliyati jarayonini qanday tartibda bajarish keraqligini tushuntiradi.

O'rta va katta guruhlarga borganda bu harakatlarni mustaqil bajarishga o'rgatadi. Buning uchun bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilib boradi:

1. Biz nima qilamiz?
2. Buning uchun nima qilishimiz kerak?
3. Ishimiz uchun nimalar-qanday materiallar, qanday ish qurollari kerak?
4. Bu material va ish qurollaridan foydalanish o'ngay bo'lishi uchun ularni ish o'rnimizda qanday joylashtirishimiz kerak?
5. Ishni nimadan boshlab, qanday davom ettirishimiz kerak? (savol mehnat oddiy va murakkabligi, mazmuniga qarab bir necha marta takrorlanishi mumkin).
6. Ishni qanday tugatamiz?

Mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o'rgatish mehnatni sifatli bajarishga va mehnat madaniyatiga o'rgatadi.

Natija - mehnat faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni bolalar ongli ravishda anglab yetishlari kerak.

Natijaga erishish bolalarda mehnat qilish odatini, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi, mehnat harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatadi.

Mehnatning sababi, ya'ni bola nima uchun mehnat qilishini bilishi kerak. Bu quyidagi shart-sharoit ta'sirida rivojlanadi:

1. Bolalar mehnatidan keladigan natijani va uning ijtimoiy mohiyatini bilishlari kerak.
2. Bolalar yasagan buyumlardan MTTda, oilada foydalanish kerak.
3. Bolalarning ijtimoiy-foydali mehnatini amaliy jihatdan tashkil etish.
4. Bolalar mehnatining natijasini, uning boshqa kishilar uchun foydasini baholash.

Shunday qilib, mehnat jarayonining undagi tarkibiy qismlar bilan egallab olinishi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi.

MTTda mehnatni tashkil etish shaqlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatining asosiy shaqlari quyidagilardan iborat: o'z-o'ziga xizmat qilish, topshiriqni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar, jamoa mehnati. O'z-o'ziga xizmat, topshiriqni bajarish, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlang'ich shaqli hisoblanadi.

O'z-o'ziga xizmat qilish bolalar mehnatining shaqli sifatida yosh guruhlarida tashkil etiladi. U kun tartibidagi uyqu va sayrdan oldin va keyingi jarayonlar: ovqatlanish, kiyinish va yechinish, kiyim va badanni toza tutish bilan uzviy bog'liqdir. (Bu mavzu «Jismoniy tarbiya» bobida batafsilroq yoritilgan.)

Yosh guruhlarida topshiriqdan foydalaniladi: u yakka tartibda va guruhiy bo'lishi mumkin. Kichkina guruhlarda bolalarga uncha murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: «O'yinchoqni, kitobni, stulni olib kel, o'rniga olib borib qo'y, tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq». Bunday topshiriqlarni ayrim bolalar guruhdan tashqari joylarda ham bajarishlari mumkin.

O'rta va katta guruhlardagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ikkinchi bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan bo'ladi, masalan, boshqa guruhning tarbiyachisiga, enagaga, shifokorga, hamshiraga murojat qilish va hokazo.

Bu guruhlarda topshiriqlar 2-3 boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv qo'yish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash kabi).

Maktabga tayyorlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar endi javobgarlik va boshqa kishilarga mehribonlarcha munosabatda bo'lish xissini shaqllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin: kichkina guruh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish; ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enagaga toza sochiqlarni osishga, toza choyshablarni olib kelishga yordamlashish va hokazo.

Topshiriq uzoq vaqt bajarilishi mumkin. Masalan, ma'lum bir gul yoki bir qancha gullar bir hafta davomida parvarish qilinishi yoki bu ish yanada uzoqroq cho'zilishi mumkin (biror o'simlikni ekish va o'stirish).

Yosh guruhlarda navbatchilikni tashkil qilish.

Tarbiyachi bolalarning topshiriqni bajarishlariga rahbarlik qilish bilan ham axloqiy, ham mehnat tarbiyasining muhim tomonlarini amalga oshiradi, mehnatda qatnashish istagini,

o'rtog'lariga g'amho'rlik va e'tibor bilan qarash ruhini singdiradi, bolalarni tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro xushmuomala bo'lishga odatlantiradi, topshirilgan ishda burch va javobgarlikni sezish xissini, natijaga erishishda sabotlilikni tarbiyalaydi.

Navbatchilik – bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shaqli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi ikkinchi kichik guruhda yil oxiridan (oshxonada) boshlanadi.

Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhdan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida).

Ikkinchi kichik guruhdagi bolalar oshxonada navbatchilik qiladi. Birdaniga 4-5 bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola 1-2 stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengayadi. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo'lingandan keyin idish-tovoqni ovqat tarkatiladigan stolga yig'ishtirish, stollar ustini tozalab olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikkitadan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish xajmlari ko'payadi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik qilish o'rta guruhda-bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan keyin kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga keraqli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga soladilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ahamiyatga ega.

Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa ikkinchisiga yordam beradi.

Navbatchilikning hamma turi yaxshi tashkil etilganda foydali bo'ladi. Navbatchilikni boshlashdan oldin «Biz navbatchilik qilamiz» degan mavzuda mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan, tabiat burchagida navbatchilikni boshlashdan oldin tarbiyachi mashg'ulot o'tkazib, bolalarni tabiat burchagida nimalar borligi, o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilish xaqida suhbat o'tkazadi. Tarbiyachi tabiat burchagida yashovchilarni har kuni va to'g'ri boqish, o'simliklarni sug'orish va yuvish, qurigan shoxcha barglarini qirqish kabilarga diqqatni jalb etadi, ish usullarni tushuntiradi.

Navbatchilik ishlari bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan (suyuq ovqatlarni, choyni bolalar tarqatmaydilar, og'ir narsalarni bolalar ko'tarmaydilar va hokazo) qilib tashkil etilishi kerak. Navbatchilik uchun hamma keraqli jihozlar bo'lishi lozim, bolalar ulardan mustaqil, ehtiyotlik bilan foydalanishga, ishdan keyin joyiga yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi.

Navbatchilarning borligi boshqa bolalar hamma ishdan ozod bo'lishini bildirmaydi, ovqatni yeb bo'lgan har bir bola o'zining idishini stolni ustiga tahlab qo'yadi, salfetskani ham ma'lum joyga qo'yishadi, stol ustidagi uvoqlarni maxsus cho'tka bilan idishga yig'ib olishadi. Mashg'ulotdan keyin ham shu xol takrorlanadi; har bir bola o'zining qalamini qalamdonga solib qo'yadi, o'z mo'yqalamlarini yuvib, qiyqimlarni yig'ishtirib qo'yishadi va h.k. Eng muhimi – bolalarda o'zaro mexr-muhabbatni tarbiyalash, bir-biridan qo'lidan kelgan yordamini ayamaslikka o'rgatish kerak. Bularning hammasiga tarbiyachi rahbarlik qiladi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shaqlaridan yana biri qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan xollarda ana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoachilik asoslarini shaqllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat

taqsimoti ham mujassamlashgan bo‘ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birgalikda qayg‘uradilar.

Mehnatda bolalarning birlashishlari tarbiyaviy vazifaga qarab har xil shaqlda bo‘ladi. «Yonma-yon mehnat»da hamma bolalar bitta ishni bajaradilar, ammo har bittasi o‘sha umumiy ishning bir qismini bajaradi (bittasi mo‘yqalamlarni yig‘ishtirdi, boshqasi bo‘yoqlarni va h.k.). Ishning bunday tashkil etilishi bolalarni mehnat malakalariga o‘rgatishda ham, ularning ishini nazorat qilib turishda ham o‘ng‘aylik tug‘diradi.

Bolalarning mehnat faoliyatini rejalashtirganda tarbiyachi uni mehnat jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy vazifalariga ko‘ra belgilaydi.

Bolalar bog‘chasida mehnat tarbiyasining shart-sharoitlari. Bolalar bog‘chasida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun keraqli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bolalar mehnati uchun joy va vaqt, gigienik shart-sharoit yaratilmog‘i lozim. Ozodalik, toza havo, keraqli darajadagi yorug‘lik, mehnatning bolalar imkoniyatiga muvofiq bo‘lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to‘g‘ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15-20 daqiqa), bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e‘tiborga olish kerak.

Mehnat bolalarga quvonch bag‘ishlaydigan qilib rejalashtirilishi lozim. U ma‘lum izchillik bilan amalga oshirib borilishi kerak.

Mehnat qilishlari uchun hamma bolalarga yetarli miqdorda keraqli qurollar, asboblari bo‘lishi, ular bolalarning yoshiga, imkoniyatiga mos kelishi, o‘zlari mustaqil foydalanadigan qilib joylashtirilishi kerak. Navbatchilar uchun fartuklar, qalpoqcha, qo‘lqopcha, idish yuvish uchun klyonkadan fartuklar zarur. Ovqat tayyorlash uchun kichiqroq pichoqlar, tarelkalar, o‘qlovchalar, xamir qorish uchun tog‘arachalar, shaqlchalar kerak bo‘ladi. Xonani tozalash uchun toza latta, kichikroq tog‘aracha, stoldan uvoqlarni yig‘ib olish, polni supirish uchun cho‘tkalar, axlatni yig‘ib olish uchun xokandozlar kerak. Kir yuvish uchun tog‘ara, chelalakchalar, kichkina dazmol taxtasi, kiyim tozalash uchun cho‘tka, supurgi, tikish uchun tugmachalar solingan quticha, ip, nina, mato parchalari, o‘yinchoqlarni yasash va singanlarini, buzilganlarini tuzatish uchun maxsus stol yoki taxtacha, bolg‘achalar, mixlar, qisqich, yaxshi randalangan taxtachalar, karton, ip, arqon, tashlandiq materiallar, gugurt qutilari, konfet, atir qutichalari, ipdan bo‘shagan g‘altaqlar va hokazolar zarur. Guruh xonasidagi tabiat burchagida, MTT xovlisidagi polizda, gulzorda ishlash uchun belkurak, xaskash, supirgi, kichkina zambilchalar, chelakchalar, leyka, savatchalar kerak bo‘ladi. Barcha buyum ishlatib bo‘lingandan keyin tozalab joyiga qo‘yiladi.

Bolalarga to‘g‘ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir-biri bilan o‘zaro dustona munosabat bilan hamkorlikda ishlashlari ijobiy natija beradi.

Mehnat tarbiyasi masalalari MTTning yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to‘g‘ri rejalashtirish va amalga oshirilishida yordam beradi.

MTTda mehnat tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar:

Mehnat tarbiyasi – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shaqllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon.

Mehnatsevarlik – mehnat turidan qat‘iy nazar uni sevib, unga sadoqatli bo‘lgan, uni malakali bajaruvchi kishining fazilati.

Mavzular yuzasidan nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qanday mehnat turlariga jalb qilamiz?
2. Mehnat tarbiyasining vazifalarini guruhlari, turkumlarga ajrating.

3. MTTlarda mehnat tarbiyasi nechta yo‘nalishda amalga oshiriladi?
4. Bolalarni kattalar bilan birgalikdagi mehnatlarini tashkil etish shaqllari qaysilar?
5. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o‘z ichiga oladi?
6. MTTda mehnatni tashkil etish shaqllari qaysilar?

12-Mavzu: O‘YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI.

REJA:

1. O‘yinning maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o‘rni.
2. MTTda tashkil etiladigan o‘yinlar va ularni tashkil etish metodikasi.
3. Ijodiy o‘yinlar va ularning turlari.
4. Didaktik o‘yin turlari.

***Tayanch tushunchalar:** o‘yin, harakat, ijodiy o‘yin, qoidali o‘yin, syujetli-rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurish-yasash o‘yinlari, didaktik o‘yinlar, og‘zaki so‘z o‘yinlari.*

Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sog‘lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz bo‘lmish bolaning ilk yoshlik chog‘idan boshlab ularning o‘sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanish ta‘lim –tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

Tarbiya vositalari haqida gapirar ekanmiz, bolalar uchun eng sevimli va quvonchli vosita bo‘lgan o‘yinning o‘rni beqiyosdir.

O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi.

va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta‘lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma‘naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, MTTning ta‘lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinning maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o‘rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o‘yinlari o‘zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o‘yin mazmunida aks etgan jihatga o‘z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola - o‘sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir.

Harakat – ma’lum maqsadga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyat, mehnat. O‘z mohiyatiga ko‘ra aqliy yoki jismoniy bo‘lishidan qat’iy nazar harakat MTT tarbiyalanuvchilarining to‘la-to‘kis o‘sib-ulg‘ayishlarini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri sanaladi. Faol harakatlarga ehtiyoj o‘yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan didaktik o‘yinlar orqali to‘liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o‘yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega.

2. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o‘yinlar MTTda bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o‘rin egallab, u eng avvalo, o‘yin orqali ta’lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqtni mashg‘ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni cho‘zib yuborish orqali egallash mumkin emas. MTT dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin ham kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, o‘yqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o‘yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli, didaktik o‘yinlar kiradi.


3. O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o‘yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko‘nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me‘yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladi. O‘yinda bolaning o‘z tengqurlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

4. O‘yin bolalarga ta’lim-tarbiya berishning metod va usulidir. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g‘ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.


Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatni shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohish-istaklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi.

MTTda tashkil etiladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi

MTTda tashkil etiladigan bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, umumlashtirgan holda, uni ikki turga ajratish mumkin:



Ijodiy o'yinlar qat'iy belgilangan qoidalarga ega bo'lmagan va o'yin qoidalarini bolalarning o'zlari o'yin jarayonida belgilaydigan o'yinlar sanaladi. Odatda bu kabi o'yinlarni bolalarning o'zlari o'vlab topadi.



Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmuni bilan bog'liq o'yin bo'lib, o'yin jarayonida o'yinchi o'z rolini o'ynaydi. Tashkil etiladigan o'yinlar o'z mazmuni bilan bog'liq bo'lishidir. Buning uchun albatta, bolalar biror narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishi lozim. M: bolalar "parovoz" o'yinini o'ynashmoqchi bo'lishadi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolada avval g'oya tug'iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba'zan bolalarning o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. M: ular orasidan kim "parovoz" bo'lishi, qolganlar uning orqasidan ergashishi, qayerga borganda navbat almashishlarini oldindan kelishib olishadi.

Syujetli-rolli o'yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalarni kerakli yo'nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- 1) bolalar o'yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o'yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;
- 2) tarbiyachi bolalarning o'yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istaklarini bilib olib, ularni to'g'ri yo'lga solish, ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;
- 3) syujetli-rolli o'yinlarni o'ynash uchun ma'lum joy ajratish lozim;

4) o‘yin jarayonida kerak bo‘ladigan o‘yinchoqlarni bolalar mustaqil o‘zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog‘och bo‘laklari, mix, loy, qog‘oz, karton, bo‘yoq va kerakli asboblari – bolg‘acha, qo‘l arra, qaychi, pichoq kabilarni berish kerak. Biroq o‘yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;

5) o‘yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o‘ynashga o‘rgatish usullaridan biridir; tarbiyachi bolalarning rolli o‘yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to‘g‘risida ham o‘ylashi kerak;

6) tarbiyachi bolalarning barchasi o‘yinga qatnashishlari to‘g‘rsida g‘amxo‘rlik qilishi kerak; o‘yinda ko‘pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladi; bolalarni bu kabi kelishmovchiliklarni haqqoniy yechishga o‘rgatish lozim.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma‘lum bir rolni bajarishga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o‘yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

I bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko‘p bo‘lishi kerak;
- 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo‘lishiga e‘tibor qaratish lozim;
- 3) asar ifodali o‘qishga mos bo‘lishi kerak;
- 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo‘lishi zarur;
- 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘qib berish.

III bosqich. Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o‘qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to‘g‘ri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga muvofiq. M: o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaydigan o‘yinning tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarni o‘z fikrlarini ro‘yobga chiqarish usulidir. Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Qurilish materiallari bilan bog‘liq o‘yinlarni o‘tkazishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

- 1) qurilish materiallari butun guruh bolalarining bir paytda o‘ynashlari uchun yetarli bo‘lishi lozim;
- 2) guruh xonasida qurilish materiallarini saqlaydigan, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qo‘yishning iloji bo‘lgan joy bo‘lishi kerak;
- 3) qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo‘lgan g‘ildirakli shkaf bo‘lishi, uni bolalar istagan tomonlariga sudrab olib yurishlariga imkon yaratilishi kerak;
- 4) qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o‘yinchoqlar, o‘yinchoqli odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo‘lishi mumkin;
- 5) bolalarning o‘zlari o‘yinchoq yasashlari uchun har doim kerakli material bo‘lishi zarur;
- 6) bolalarga qurilish usullarini o‘rgatish lozim;

7) qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha, hatto undan ko'proq muddat saqlash kerak.

Qurish-yasashga doir o'yinlar uchun qum, suv, qor kabilar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qum bolalarning yozda o'ynashlari uchun yaxshi material. Har bir guruhda ikkitadan qum yashigi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda hamma bolalar o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladi. Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi.

Qumni saqlashga muayyan gigiyenik talablar qo'yiladi. Ular:

- a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi;
- b) qum faqat namroq holda saqlanishi;
- d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagi bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar bilan kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagi bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

Didaktik o'yinlar – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida MTT tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal yetishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.


Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Didaktik o'yinlar jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

- 1) navbatma-navbat ta'sir etish;
- 2) so'ralganda javob berish;
- 3) o'rtoqlari fikrini eshita olish;
- 4) o'yin jarayonida boshqalarga halaqit bermaslik;
- 5) o'yin qoidasini bajarish;
- 6) o'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin sur'ati va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:



Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash bir

Og'zaki so'z o'yinlari bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadigan o'yinlar sanaladi. Bu kabi o'yinlar odatda katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Demak, o'yin kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, MTTning ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bola shaxs faoliyatining muhim turlariga nimalar kiradi?
2. MTTda tashkil etiladigan bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra necha turga ajratish mumkin?
3. Ijodiy o'yinlar deb nimaga aytiladi?
4. Ijodiy o'yin turlari qaysilar?
5. Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etish nechta bosqichda amalga oshiriladi?
6. Qoidali o'yinga ta'rif bering.
7. Didaktik o'yin deb nimaga aytiladi?

13-Mavzu: MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH.

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktabga tayyorlash ishlarining ahamiyati.
2. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi.
3. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash.
4. "Ilm yo'li" dasturi asosida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash.
5. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar.

Tayanich tushunchalar: bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi, bolaning burch va huquqlari, maktabga tayyor bo'lgan bola, bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash, "Ilm yo'li" variativ dasturi.

MTTda bolalarni maktabga tayyorlash ishlarining ahamiyati

Maktabdagi majburiy ta'lim bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki, bola ta'lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin.

Olimlar bolani qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashadi?

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmunini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishi shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatiladi. Psixologlar maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tomonlarini ajratadilar: **jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his-tuyg'uli) va sababli (motivli).**

Boshlang'ich maktab bolani o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini qo'yadi. Talablardan biri MTTga xos bo'lgan kun tartibiga rioya qilish. Bolaning bog'chaga borish vaqti oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga borish majburiy - bola darslarga har kuni kelishi shart. Bog'cha bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo'lgan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan, o'z xohish bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa uning birinchi qismini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi, undan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma'lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishlari qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi lozim. Maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tana ustini esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi

hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishilining aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo'lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehqli, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq bo'ladi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'rni ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi. Oldingi jamoada bola o'zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi.

Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o'qish bo'lib qoladi. Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz bo'lgani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega bo'lishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ch qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo'lish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabat o'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi.

Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikani o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh – bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A.Komenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniquqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6 - 7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi. Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim. Bolada estetik idrokni shakllantirish, uning yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, yon-atrofni estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so'z, rasmlarning chiroyini sezishni o'rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash. Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTTda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo, ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bola olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'nini topa olmaydilar. Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yangi tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy

munosabat tugʻdiradi. Uning jismoniy va ruhiy sogʻligi ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo boʻlishi mumkin: uyquning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh ogʻriqlari va boshqalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo boʻla boshlaydi, bola qanday boʻlmasin oʻziga diqqat-eʼtiborni qaratmoqchi boʻladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin boʻladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassisla aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar maʼlum bir jismoniy, ruhiy kamchilik boʻlsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Maʼlum bir nuqsonlarga ega boʻlgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi.

“Ilm yoʻli” dasturi asosida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash. Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlim tizimiga katta eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan, Prezidentning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha taʼlim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar haqida”gi 5198-son Farmoniga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi tashkil etildi. Shu bois, eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va oʻquv-metodik taʼminotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha taʼlim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda
“Boshlangʻich taʼlimga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich oʻtish boʻyicha chora-tadbirlar haqida”gi 999- sonli qarorini ijro etish doirasida Oʻzbekiston oʻz zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga toʻlovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi boʻyicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga taʼlim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yoʻli” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga taʼlim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yoʻli” variativ dasturi ishlab chiqildi.

“Ilm yoʻli” variativ dasturi bolaning toʻlaqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va oʻqishini, uning maktabda taʼlim olishga samarali tayyorlanishini taʼminlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash boʻyicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat boʻlib sanaladi.

Mazkur dastur oʻziga xos boʻlib, unga koʻra, oʻquv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Dastur idoraviy boʻysunishidan va mulkchilik shakllaridan qatʼiy nazar Oʻzbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha taʼlim tashkilotlarida qoʻllanilishi mumkin:

- bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega boʻlgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tiplardagi davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlarida;
- maktabgacha va boshlangʻich taʼlim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan oʻrta-maxsus va oliy taʼlim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tizimi uchun pedagog-kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta'limning muqobil shakllari hududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o'z muqobil shakllarini ishlab chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta'limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

6-7 yoshli bolalarni o'qitish majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim sektori rejasi, maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo'naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
- maktabgacha ta'limga sarf-harajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda);
- umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
- ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;
- g'ayriaxloqiy va jinoiy xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

- zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi kerak;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan;

- maktab ta'limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga;
- amaliyotga bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etishga;

- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
- ta'lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e'tiborga olish;
- qulay, do'stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
- bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol ta'lim;
- integrativ o'qitish.

6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar.

Fiziologik rivojlanish. Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgara boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi.

Psixik jarayonlarning rivojlanishi. Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir

vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari uchrashi mumkin.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o'rgatish mumkin.

Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyliги mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha bo'lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi.

Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o'ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu fakat yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o'ta muhimdir.

Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'la boradi. So'z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3000 ta so'zgacha boyib boradi.

Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejasi"ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o'z-o'zini anglashida "Men" obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya'ni, tahlil qilishi, o'z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu

jumladan, o'z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma'nan rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "men qila olaman" motivlarining anglanishi "men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

O'z "Men"ini anglash va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo'lishi yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – "maktab o'quvchisi o'rnini"ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy "Men"ini anglash paydo bo'ladi.

O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarini o'zlashtirishni va uni amalga oshirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar.

O'yinlar murakkablasha boradi, ba'zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo'ladi. Bunda bolalar butun o'yin maydonini to'la kuzatib turishga, o'yindagi barcha ishtirokchilarni ko'rib turishga va zaruriy o'yin harakatlariga bog'liq bo'ladigan o'z xulq-atvori yoki rolini o'zgartirib turishga qodir bo'ladilar.

6-7 yoshli bolaning muloqoti. Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya'ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki "nima bo'ldi" yoki "nima bo'ladi" tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo'ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo'ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo'lib sanaladi. muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o'zaro tushunish, his-tuyg'ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o'zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o'rtoqlashadi. Ota-onalar hamda

pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo'lishi ifodalanadi:

- muloqot tashabbusini boshlash;
- birinchi yaqinlik;
- biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;
- musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;
- sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);
- guruhda bolalarning tutgan o'rni bo'yicha farqlanishi paydo bo'ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo'lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko'nikmalar bo'lib quyidagilar sanaladi:

- bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o'zlashtirilishi;
- boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;
- "maktab o'quvchisi ichki hissiyoti"ning shakllanishi, ya'ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to'la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo'lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o'zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o'rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o'quvchisi pozitsiyasi shakllanadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o'qishga imkon beradi.

Maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar. Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi. Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Psixologlar bolani maktabga umumiy tayyorgarligining qaysi tomonlarini ajratganlar?
2. Qaysi olim tomonidan "bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt" deb hisoblangan?
3. Maktabga tayyor bo'lgan bola nimalar qila oladi?

4. Bolaning maktabga tayyorgarligini qanday aniqlash mumkin?
5. “Ilm yo‘li” variativ dasturi qanday hujjat bo‘lib sanaladi?

14-Mavzu: MAKTAB TA’LIMIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.

REJA:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotining maktab bilan aloqa shakllari.
2. Tayyorlov guruh bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari.

15-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi.

REJA:

1. “Oila” tushunchasi va uning mohiyati.
2. Oilaning bolani maktabga tayyorlashda o‘rni.
3. MTTning oila bilan ishlash shakllari.
4. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmun.

Tayanch tushunchalar: oila, MTT, hamkorlik, oila va MTT hamkorligi, ota-onalar bilan ishlash, ota-onalar bilan ishlash shakllari.

“Oila” tushunchasi va uning mohiyati

Oila – nikohga yoki a’zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o‘zaro axloqiy javobgarligi va o‘zaro yordamiga asoslangan qon-qarindoshlarning kichik guruhi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo‘lgan oilaga quyidagicha ta’rif mavjud: “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, yuridik ma’noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog‘langan shaxslar doirasidan iborat bo‘lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir”.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta’minlaydi.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydi. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug‘chilik rishtalari bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarga xos bo‘lgan muhim jihatlar – o‘zaro mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, mas’uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir.


Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo‘g‘ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar albatta, oilada o‘z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy ijtimoiy birlashmalardan farqli

ravishda oila to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog‘liq jarayondir.

Iqtisodiy sohadagiga qaraganda, yangi munosabat, yangi axloq me‘yorlari oilada sekin sur‘atlarda amalga oshadi. Oilaviy o‘zgarishlarning amalga oshishida biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirok etadi.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li oilaviy hayotdir. Binobarin, oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o‘chog‘i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum, odatlar mavjud.

Oila hayoti mazmunidan kelib chiqqan holda ko‘p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi, shunga ko‘ra oilaviy munosabatlar quyidagi shakllarga ega:



Oila **Oilaviy munosabatlarning shakllari** ‘lishi, uning a‘zolarining ijtimoiy faoliyatining o‘sib borish ko‘lami va tavsifi bilan bog‘liq. V.A. Slastenin, I.F. Isayev, ye.N. Isayevlarning fikricha, oila jamiyat va odamlarga munosabati bo‘yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

Oilaning bolani maktabga tayyorlashda o‘rni

Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a‘zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat xissini ham talab qiluvchi

qiyin va murakkab ishdur.

Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma‘naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma‘naviy tarbiyani bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she‘r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an‘analarimizni o‘rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator **axloqiy** jihatlari shakllanadiki, boshqa hech qaysi tarbiya ob‘ekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehmuruvvat, raxm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga **estetik tarbiya** berishda ham oilaning muhim o‘rni bor. Oila davrasida qo‘shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining **jismoniy barkamolligi**ga o‘ta mas’uliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to‘g‘ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to‘g‘ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o‘tkazishlari zarur.

Bola hayotida **mehnat tarbiyasi** muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko‘nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o‘rgatishga jiddiy e‘tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.


Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo‘llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va tarbiyachi-uslubchilarning muhim vazifasidir.

Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to‘g‘ri hal qilinishi tarbiya ishining qo‘yilishiga majmuaviy yondashuvga ta‘lim muassasalari, oila va jamiyatchilikning to‘liq o‘zaro ta‘siri va harakatlarning birligiga bog‘liq.

Bolalar maktab ta‘limiga tayyorgarligiga ta‘sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda MTT xodimlari, pedagog olimlar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlarning o‘rni juda katta.

Bola kunning asosiy qismini MTTda o‘tkazsa ham, inson komoloti uchun eng muhim bo‘lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo‘yiladi. Shu sababli ham maktabgacha ta‘lim pedagogikasining asosiy maqsadi bo‘lgan bolalarni maktab ta‘limiga har tomonlama tayyorlashda MTT bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. MTTning oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashida keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlari ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakllarini keltiramiz.

Ota-ona va oila bilan individual ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.



Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

Ko'rsatmali ishlar – tarbiyachi-metodist tomonidan MTT jamoasi bilan hamkorlikda yoki shaxsiy tashabbusi asosida sub'ektlar, ob'ekt va jarayon bilan bevosita tanishish maqsadida tashkil etiladigan amaliy-ko'rsatmali tadbirlar sanaladi.

Bu turdagi ishlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Ko'rgazmalar uyushtirish (bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish).
2. Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.
3. Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish.

MTTda ota-onalar bilan olib boriladigan jamoaviy ishlar quyidagi mazmunga ega:

Pedagogik ma'ruzalar ota-onalarning e'tiborini tarbiyaning zamonaviy muammolariga qaratishni maqsad qilib qo'yadi. Mazkur shakl ota-onalarni tarbiya nazariyasi asoslariga doir tizimli bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Pedagogik majburiy o'qishni ilk yosh guruhdanoq ota-onalar bilan boshlash lozim, chunki ayni shu paytda MTTga, pedagogik ma'rifatparvarlikka munosabat paydo bo'ladi. Agar birinchi mashg'ulotni MTT direktori o'tib bersa, juda yaxshi bo'ladi. Pedagogik majburiy o'qishda parallel guruhlar birlashtirilishi ham mumkin.

Ko'pgina ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun pedagogik ma'ruzalar majburiy o'qish bilan taqqoslaganda, ota-onalarning tarbiya nazariyasini egallashlari bo'yicha murakkab ish shakllaridan biri hisoblangan **pedagogik ta'lim universiteti** ishlaydi. Mashg'ulotlar ham ma'ruza, ham seminar tarzida tashkil etiladi. Albatta, hamma ota-onalar auditoriyasi bunday ish shakliga tayyor emas. Tez-tez ta'lim tashkilotlarida bunday "universitet" tizimi ishlari soddalashlashtirib turiladi, nomi o'zgarmasdan qolsa ham, mazmuniga o'zgartirishlar kiritiladi.

MTTda tarbiya jarayonini tashkil etish muammolari bo'yicha ota-onalarning an'anaviy **yillik ilmiy-amaliy anjumani** shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb muammo aniqlab olinadi. MTT va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o'rganish amalga oshiriladi. Shundagina anjuman haqiqatdan ham yakuniy bo'lishi mumkin.

Ochiq eshiklar kuni yoki MTTda ota-onalar kuni juda katta tayyorgarlikni talab etib, odatda uni bolalar bir guruhni tugallab, keyingi bosqichga o'tishlariga mo'ljallanadi. MTT maxsus jihozlanadi, navbatchilar belgilanadi, ajoyib bayram dasturi tayyorlanadi.

Bayramni o'tkazishning namunaviy tuzilishi:

- majlislar zalida o'ttiz daqiqa davomida turli guruh ota-onalari uchun MTT faol tarbiyalanuvchilarining chiqishlari tashkil etiladi, eng yaxshi guruh va alohida tarbiyalanuvchilar belgilanadi;
- guruhlar bilan tanishish (tarbiyalanuvchilar ota-onalarga qanday yashayotganliklari, qanday ta'lim olayotganliklari, nimani o'rganganliklari, o'zlarining ko'nikma va malakalarini namoyish etishadi; katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari suvenirlar tayyorlashada va ota-onalarga topshirishadi);
- ko'rgazmalarga tashrif buyurish: "Eng yaxshi rasmlar", "Eng yaxshi qo'lda bajarilgan ishlar", "Kichik musavvirlar va konstruktorlar" va boshqalar;

- ota-onalar qo‘mitasi sovrini uchun tashkil etilgan sport musobaqalari;
- tarbiyalanuvchilarning badiiy film ko‘rishi;
- ota-onalar uchun film namoyish etish.

Albatta bunday ochiq eshiklar kunini o‘tkazish variantlari ko‘p. Eng asosiysi MTTda olib borilayotgan ishlarni namoyish etish, ota-onalarning e‘tiborini tarbiyaviy masalalarga qaratish.

Ota-onalar majlisi – an’anaviy, hammaga yaxshi ma’lum ish shakli. Shu bilan birga bugun majlis o‘tkazish metodikasi uni takomillashtirishni talab etadi. Guruh majlisini tashkil etishga yondashuvlardan biri – majlis mavzularini muammoli tarzda shakllantirish: “Qiyinchiliklardan qochish yoki ularni chetlab o‘tish bolalarni tarbiyalashga yordam beradimi?”, “Rahmdil, g‘amxo‘r qilib tarbiyalashni kechiktirish mumkinmi?”, “Bolardagi dangasalikni qanday yo‘qotish kerak?”, “Bolalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalash ishlariga qanday jalb etish kerak?” Faqatgina muammo shakllantirilib qolmasdan, o‘tkazish uchun qiziqarli ham bo‘lishi kerak.

MTTda tashkil etiladigan **individual ishlar** ota-onalar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi.

Individual ish shakllaridan biri – **tarbiyalanuvchining oilasiga tashrif buyurish**dir. Bu shakl tarbiyachi va ota-onalarga juda yaxshi ma’lum, biroq, ikki holatda tashrif buyurish to‘xtatilishi zarur.

Oila tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugun 90% bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Demak, har qanday vaqt ham tarbiyalanuvchiga tashrif buyurish uchun qulay emas. Noo‘rin tashrif buyurish biror ish bilan mashg‘ul bo‘lib turgan ota-onalarda norozilik uyg‘otishi mumkin. Ba‘zan shunday ham bo‘ladiki, tarbiyachi uyga borganda kim bilan suhbatlashishni ham rejalashtirmaydi. Oila tarbiyasiga doir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “taklif bo‘yicha tashrif buyurish” tarbiyachining oilaga tashrif buyurishiga nisbatan tarbiyalanuvchilarning salbiydan ijobiy, faol gacha bo‘lgan radikal munosabatlarini o‘zgartiradi.

Bola oilasi bilan aloqalarni o‘rnatish shakllaridan biri dastlabki **pedagogik topshiriqni** bajarish jarayonidagi ota-onalar va tarbiyachining muloqotida aks etadi. Pedagogik topshiriqning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bolalar bilan uzluksiz (yakka, guruh, jamoaviy) ishlash, faol tarbiyaviy nuqtai nazarni talab etuvchi topshiriq: bolalarning qiziqishlari bilan bog‘liq to‘garaklarga rahbarlik qilish va boshqalar. Tarbiyachiga tashkiliy yordam ko‘rsatishni talab etuvchi topshiriq: ekskursiyani tashkil etishga yordamlashish (transport, yo‘llanma bilan ta‘minlash); taniqli kishilar bilan uchrashuvlarni tashkil etishga ko‘maklashish; guruh xonasini jihozlashga yordamlashish. Xo‘jalik vazifalarini hal etishga qaratilgan, ta‘lim tashkilotining moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlashni talab etuvchi topshiriq: xonalarni jihozlash, o‘quv jihozlari va qurollarini tayyorlashga ishtirok etish; ta‘mirlash ishlariga yordam berish.

Pedagogik topshiriqlarning sanab o‘tilgan mazkur turlari ota-onalarning ijtimoiy ishlarining barcha turlarini qamrab olmaydi. Ota-onalarga ular nima bilan shug‘ullanishni xohlayotganliklari bo‘yicha savol bilan murojaat va anketa to‘ldirishni taklif etish mumkin.

Pedagogik maslahat – MTT tomonidan ota-onalarga maktabgacha ta‘lim yoshi bolalarini samarali tarbiyalashga doir muammolarni hal qilishda ko‘rsatiladigan amaliy-metodik yordam. Maslahatning pedagogik-psixologik shartlari o‘zida tarbiyachi va psixologning ota-onalarning

tashabbuslariga ijobiy munosabati, oilaga yordam ko'rsatishga tayyor turish, ota-onalarda paydo bo'lgan savollar bo'yicha aniq tavsiya maslahatlar berishni aks ettiradi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni

MTTda ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida

ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlarini tavsiflashdan oldin ularning o'zaro birgalikdagi faoliyati va oila bilan aloqalarni yo'lga qo'yish usullarining ba'zi psixologik-pedagogik ta'sirlariga to'xtalib o'tish lozim.

Birinchi qoida. MTT va tarbiyachilarning oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro'sini oshirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt "qilishingiz kerak", "majbursiz" kabi jumalarni ishlatmaslik ma'qul. Chunki ko'pchilik ota-onalar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar, faqat amaliyotda ular ana shu bilganlarini qanday amalga oshirish muammosiga duch kelishlari mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro munosabatlarining yagona to'g'ri shakli – bu o'zaro hurmat. Qachonki, nazorat shaklida tajriba almashish, maslahat va birgalikda muhokama, yagona qaror shakllantirilsa, ikkala tomon uchun ham qoniqish hosil qiladi. Bunday munosabatlarning qimmatini shundaki, tarbiyachilarda ham, ota-onalarda ham shaxsiy javobgarlik hissini, talabchanlik, fuqarolik burchini rivojlantiradi.

Ota-onalarning ish joylariga "Rivojlanish xaritasi", "Ochiq jurnal" kabilarni olib borish kutilgan natijalarni bermaydi. Ota-onalar bilan suhbatda "qora ro'yxat"dagi ma'lumotlardan foydalanish ham yaxshi foyda bermaydi, chunki birinchidan, ota-onalarda bolalaridan norozilik paydo bo'ladi, ikkinchidan ta'lim muassasasiga nisbatan ularda salbiy munosabat shakllanadi. Keyin ota-onalar ta'lim tashkilotiga borgisi kelmasligi, ular bolalari haqida yomon fikr aytganliklari uchun ko'ngli tortmasligini aytib arz qiladi. Ba'zan bunday holat oilada ota-ona munosabatlari yomonlashuviga ham olib keladi. Oxir-oqibat bolada ta'lim tashkilotiga nisbatan ham, tarbiyachilarga nisbatan ham salbiy munosabat hosil bo'ladi. Tarbiyachi tarbiyaviy ish shakl va metodlarini tanlashda qabul qilingan qaror va talab bolalar ko'z oldida ota-onaning obro'sini mustahkamlash va oshirishga imkon berishini hisobga olishi kerak.

Ikkinchi qoida. Ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko'pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talablarni qabul qilishga tayyor bo'lishsa ham, biroq shunday ota-onalar borki,

bolalarni tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma'lumotga va pedagogik tayyorgarlikka ega emas.

Uchinchi qoida. Pedagogik takt, oila hayotiga nojo'ya aralashishga yo'l qo'yilmasligi. Tarbiyachi – rasmiy shaxs, biroq u o'z faoliyatida oila hayotining maxfiy tomonlariga, “boshqalar”dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo'ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo'lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi. Oila qanday bo'lishi, ota-onalar tarbiyachilar bilan qanday bo'lishlariga qaramasdan, tarbiyachi hamma vaqt uddaburon, yordamga tayyor bo'lishi kerak. Oila haqidagi hamma narsaga yaxshi tomondan e'tibor qaratishi, tarbiyada ota-onalarga yordam ko'rsatishi kerak.

To'rtinchi qoida. Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki ruh va kayfiyat, bolaning ijobiy sifatlari, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsning muvaffaqiyatli rivojlantirishga tayanish. Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllanishi qiyinchiliklarsiz, qarama-qarshiliklarsiz kechmaydi. Agar bu jarayon shaxs rivojlanishi qonuniyatining namoyon bo'lishi sifatida idrok etilsa, u holda mazkur qiyinchilik, qarama-qarshilik, kutilmagan natijalar tarbiyachining sarosimaga tushib qolishiga olib kelmaydi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, yuzaga kelgan pedagogik vazifalarni hal etishning o'nlab usullari mavjud, biroq ulardan faqat biri mazkur aniq vaziyat uchun to'g'ri bo'lib chiqadi. Ana shuning uchun ham maktabgacha pedagogikaga tayyor ko'rsatma sifatida emas, shaxsga samarali ta'sir etishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida qarash kerak.

MTT va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda MTT direktori, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Oilaga tashrif buyurishdan ko'zlangan maqsad – oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali metodlari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdan iborat.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlari, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar

beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari MTTga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning o'quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida ikki marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etadi. M:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- MTTning yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqida.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi. Ota-onalar majlisiga bog'chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda direktor yoki uslubchi-tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog'chaga qiziqish uyg'onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur ishdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi.

M: umumiy majlis mavzusi "Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli" bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, "Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda bog'cha va oilaning birgalikdagi ishlari", "Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash" va h. bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarning nomlari ko'rsatilmaligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o‘tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e’lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun va qarorlar, MTT tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘shishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan baxslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg‘ulotlari, mehnat, o‘yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o‘larining qanday tutushlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

Ota-onalar qo‘mitasi. Ota-onalar qo‘mitasi “Maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi”ga binoan direktoriga yordam berish maqsadida tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo‘mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi direktoriga maktabgacha ta’lim tashkilotining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo‘mita a‘zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o‘tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko‘maklashishdir.

Ota-onalar qo‘mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo‘yicha ular bilan ish olib boradi. Qo‘mita a‘zolari har ikki oyda bir marta yig‘ilish o‘tkazadi. Ota-onalar qo‘mitasi direktorining ish rejalari va ishning ahvoli to‘g‘risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba’zi masalalar haqidagi ma’ruza va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar MTTda saqlanadi.

Aholi o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish. Pedagogik bilimlarni targ‘ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada MTTda tarbiyalash tamoyillarini ongli ravishda anglab oldi.

Korxonalarda, xo‘jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida ma’ruzalar bilan chiqish, televideniya va radio eshittirishlar, pedagogik targ‘ibot ishining keng ommalashgan vositalaridir. Targ‘ibot, shuningdek, vaqtli matbuot: “Maktabgacha ta’lim”, “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim” kabi jurnallar, ko‘p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruxshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qish, bolalar tarbiyasi to‘g‘risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish.

Bu mashg'ulotlarni turli sohalar bo'yicha yuqori malakali tarbiyachi, aktyor, ruxshunos mutaxassislar olib boradi.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagi **shartlarga** amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning xis tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, MTT va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi mumkin.

**MTTda ota-onalar uchun
kechalar va to'garaklar
uyushtirishning ahamiyati**

MTTda ota-onalar bilan ishlashning eng samarali shakllaridan biri ochiq eshiklar kunidir. MTT ishining murakkabligi, ko'p qirraliligi va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun hamma ota-onalar MTTda bo'lib turishlari kerak.

Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha, har bir yoshdagi guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazish mo'ljallanganda avval tayyorgarlik ishini o'tkazish zarur, ya'ni, ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotlarning borshi, sayr qilish va boshqa ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida ma'lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkoni boricha ishtirok etish, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazayotgan bolalar diqqatini chetga tortmaslik, o'zining farzandiga hatto u diqqat qilmayotgan yoki biror narsani noto'g'ri qilayotgan bo'lsa ham tanbeh bermaslik, o'z tassurotlarini, fikrlarini ko'rik tugagandan so'ng bolalar ishtirokisiz aytilish mumkinligi kabi odob qoidalariga rioya qilishni iltimos qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa "Ota-onalar bizning mehmonimiz" yoki "Bizda ochiq eshiklar kuni" mavzuida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ko'rgazma MTTga shu kun tashrif buyurmagan ota va onalarda ancha qiziqish uyg'otadi.

Bolalarni tarbiyalash san'ati haqida ma'ruza va suhbatlar siklini tashkil etish mumkin. M: respublika, viloyat, tuman va mahallalardagi namunali oilalar tanlab olinib, oilalarda ota-onalar qarashidagi birlik, o'zaro munosabatda rostgo'ylik, samimiylik va mehnatsevarlik yuqori axloqiy g'oyalarni shakllantiradi mazmunidagi suhbat va ma'ruzalarni o'tkazib turish samara beradi.

Ota-onalar bilan MTT xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlayotgan sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va boshqa oila a'zolari uchun o'tkaziladigan kechalar mavzuli harakterga ega bo'lib. "Musiqqa va hayot", "Bola hayotida kitob", "Bola va tabiat" kabi mavzularni tanlash mumkii.

Hamkorlikning bu shaklining o'ziga xosligi shundaki, unda qisqacha axborotdan so'ng yig'ilganlarga bolalar, MTT xodimlari va ota-onalarning badiiy chiqishlarini ko'rish tavsiya qilinadi. M: musiqiy rahbarning chiqishidan so'ng bolalar o'zlari o'rgangan ashula, o'yinlarni bajarishadi, sahnalar ko'rsatishadi yoki biror ertak sahnalashtiriladi.

Bunday kechalar uchun "Bolani qanday sevish kerak?", "Bolalar tarbiyasida otaning roli", "Biz o'z bolalarimizni bilamizmi?", "Savol va javoblar kechasi" va h.k. mavzularni tanlash mumkin.

Ota-onalarning bolalar yozuvchilari, shoirlari, bastakorlari bilan uchrashuvlari foydalidir. Oila bilan ishlashning og'zaki jurnal, yumaloq stol atrofida uchrashuv kabi shakllari yaxshi natija beradi, bunda pedagog, shifokor, huquqshunos va b. ishtirok etadi.

Bolalar tarbiyasida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda ota-onalarga yordam berish maqsadida ular uchun qisqa muddatli to'garaklar tashkil etilib, undagi mashg'ulotlarda bolalar kiyimini bichish va tikishni, to'qishni, turli xil ovqatlar tayyorlashni o'rganishadi. Ular bilan bolalar ashulalari o'rganiladi, yasama o'yinchoqlar tayyorlash san'ati o'rgatiladi.

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan savol va javob kechalari, ochiq eshiklar kunlari diqqatga sazovordir. Ota-onalarni tanlov xarakteridagi tashkiliy-pedagogik ishlarga jalb qilish, M: yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynash uchun o'yinchoqlar yasash, syujetli-rolli o'yinlar, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir.

Bunday tanlovlar yillik rejada o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar majlisida muhokama qilish va ma'qullatib olish kerak.

Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilib, ish joylariga ma'lum qilish kerak, bundan ular ma'naviy qoniqish oladi.

Bunday ishlarni o'tkazishda katta yoshdagilarni ham yoddan chiqarmaslik kerak. Buvi va buvalarning amaliy maslahatlari, ularning boy hayotiy tajribalari yosh ota-onalar uchun ham, tarbiyachilar uchun ham qimmatlidir.

Shunday qilib, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, MTTga jalb qilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Oila sharoitida ta'lim MTT bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etilsagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Shu maqsadda MTT oilalarga metodik yordam ko'rsatadi. Bu boradagi pedagogik faoliyat jamoaviy va indiviual ishlar shaklida amalga oshiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Oila tushunchasiga ta'rif bering.

2. Oilaning psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy talqinini bayon eting.
3. Qanday asoslarga ko‘ra oilaning vazifalarini tasnif etish mumkin?
4. Jamiyatga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalarini aytib bering.
5. Insonlarga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalariga nimalar kiradi?
6. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda hozirgi zamon oilasining qanday vazifalari ajratib ko‘rsatilgan?
7. Oilaning tarbiyaviy funksiyasining mohiyatini tushuntiring.
8. Oila bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish qoidalarini bayon eting.
9. MTTning oila bilan olib boradigan ishlarining nechta shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin?
10. MTTning oila bilan olib boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga nimalar kiradi?
11. MTTning oila bilan olib boradigan ishlarining individual shakllariga nimalar kiradi?

16-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv faoliyatini tashkil etish.

REJA:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil qilish.

17-Mavzu: Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish.

REJA:

1. Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarini tashkil qilish.
3. Turli tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkiliy tuzilmasi.

18-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish va rahbarlik qilish.

REJA:

1. Ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish. Bolalarga davlat va nodavlat maktabgacha tashkilotlarida ta’lim-tarbiya berish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv, metodik xujjatlarni yuritish.
3. Pedagogik kengashni o’tkazishga rahbarlik qilish.

Таянч нууунчалар: metodik uyushma, seminar mashg’ulot, metodik birlashma, yillik reja, qaror, farmoyish, «Ilk qadam» dasturi, boshqarma, tashkiliy tuzilma.

Maktabgacha ta’limga metodik rahbarlik ishining tashkiliy tuzilishi va vazifalari.

Respublikada maktabgacha ta’limga uslubiy rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi qoshida tashkil etilgan Respublika maktabgacha ta’lim metodikasi kabineti orqali amalga oshiriladi.

Respublika maktabgacha ta’lim metodikasi kabineti Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tuman metodika kabineti faoliyatini nazorat qiladi hamda ularga uslubiy yordam beradi.

Uning asosiy vazifalari: maktabgacha ta’lim bo‘limlari qoshidagi metodika kabinetlari faoliyatini nazorat qilish, tarbiyachilar va xalq ta’limi xodimlarining kasb mahorati va

malakasini oshirish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat.

Metodika kabineti Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqdangan reja asosida ish yuritadi. Uning tashkiliy tuzilishi quyidagicha:

19-Mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM – TARBIYA ISHLARI.

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish metodlari va prinsiplari.
2. Mashg'ulot - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni o'rganish.

***Tayanch tushunchalar:** ta'lim, metod, kuzatish, mashg'ulot, dastur, STEAM uslubi, o'z-o'ziga ishonchni shakllantirish, faol muloqot va jamoaviy ish.*

Ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, MTTning talim-tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi.

Ta'lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. MTTda bolalarga madaniy – gigienik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy axloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyatlari asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Bolalarga ta'lim berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanadi. Bular: ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, o'yin metodlari, kuzatish, tushunish, mashq, didaktik o'yinlar, ko'rsatish, namoyish etish, so'zlab berish, o'qib berish, hikoya qilish, harakatli o'yinlar va h.zo.

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum ob'ektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish - materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdani boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

Mashg'ulot - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli. Mashg'ulot ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egalaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limning **frontal (umumiy), jamoaviy va yakka** tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti”da “Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturi” aks etgan. Dastur - muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar.

Dastur majburiy qism va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zarur tarkibiy qism hisoblanadi.

Dasturning majburiy qismi barcha beshta ta'lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari; bilish jarayonining

rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Dastur tarbiyachi (mutaxassis) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratayotganini ko'rsatib berishi lozim.

Dasturda bola rivojining beshta ta'lim sohasi yo'nalishlariga mos ravishdagi ta'lim faoliyatining ta'rifi kiradi: ta'lim sohasining vazifalari, ta'lim faoliyatining mazmuni, ta'lim faoliyatining natijalari, mintaqaviy tarkibiy qism (komponent), ta'lim sohasini amalga oshirish bo'yicha ta'lim faoliyatini tashkil qilish shakllari.

O'quv dasturda maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar ko'rsatiladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo'lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi.

Rivojlantiruvchi markazlar STEAM uslubi asosida tashkil etilgan bo'lib, bunda ta'lim o'yin orqali amalga oshiriladi.

STEAM uslubi - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM - ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy

ta'lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san'at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'priklar va yo'llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayt sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqmaslikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.

Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir.

STEAM –bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko'priklar, osmono'par binolarni qurish, elektron o'yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar. STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: **savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish.** Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O'z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi. Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo'llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin.

Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi.

Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xohish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko'p axborot bilan chalg'itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir.

Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchilik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim.

Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi

malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi.

MTTda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun, mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ta'lim deb nimaga aytiladi?
2. Ta'limni amalga oshirish yo'llari qaysilar?
3. Bolalarga ta'lim berish jarayonida tarbiyachi qanday metodlardan foydalanadi?
4. MTTlarda ta'lim berish shakli qanday turlarni o'z ichiga oladi?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda nimalarni hisobga olish muhim?
6. Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga nimalar kiradi?
7. STEAM uslubining afzalligi nimada?

20-Mavzu: MTTni nazorat qilish va ta'lim-tarbiya ishlarini tashkillashtirish

Reja:

1. Nazorat qilishning usul va uslublari.
2. Nazorat qilishda rahbarning boshqaruv uslubi.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilot bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish vazifalari.

Nazorat qilish deganda - Davlat nazorati, maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan rahbarlikning tekshirish shakllariga aytiladi. Bu - Mustaqil Davlatimizning qaror, hukumat, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlarini, «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi qonun» asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'lim yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir. Bu - «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom», «Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi», «Ilk qadam» davlat dasturlarining bajarilishi ustidan nazoratdir.

Bu - har bir maktabgacha ta'lim muassasi ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarni ko'ruvchi, pedagogik ta'limtarbiya, pedagogik ish sifatini o'stirishda aniq amaliy yordam ko'rsatuvchi tekshirish shaklidir.

Nazorat qilish - nazorat qilishning metodologik asosini - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Maktabgacha ta'lim Konsepsiya»sida ko'rsatib berilgan ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalar egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi tamoyillariga asoslanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshira borib, maktabgacha ta'lim bo'limlarida nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat qilishda - qonunlarning ustunligi shuni anglatadiki bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek: «Qasrda qonun hukmronlikqilsa, shuyerda erkinlikbo'ladi». Maktabgacha ta'lim bo'limlarida nazorat amalga oshiradi.

Nazoratchi-metodist - bu ma'lim sohaga tegishli qonunqoidalarning to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs. Rahbar faoliyatini baholovchi bosh mezon - uning ishini tashkil qila bilish qobiliyatidir. Rahbar ishini shunday tashkil qilsinki, odamlar «Ha, bu xalq farovonligi yo'lida g'amxo'rlik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak qo'yuvchi rahbar, deya olsin».

Nazorat qilishda - boshqarishni obdon puxta o'ylangan tizimini ishlab chiqish, o'tmishni mas'uliyat bilan tahlil etish - kelajak yo'lini talab borishini, o'tkir muammolarni tortinchoqlik bilan emas, balki ro'yi-rost ochib tashlash kerakligi uqtiriladi. Bu vazifalarni to'g'ri, o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Nazorat qilishning maqsad va vazifalarini tayyorgarligi nimalardan iborat?
3. Nazorat qilishda nazoratchi-uslubchining tayyorgarligi nimalardan iborat?
4. Nazorat qilishning usullarini izohlab bering?
5. Nazorat qilishning qanday bosqichlarini bilasiz?

AMALIY MASHG'ULOTLARI

1-Amaliy mashg'ulot:

Mavzu: Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari. Maktabgacha pedagogika fanining predmeti va vazifalari.

“Davra suhbatı” o‘tkazish.

“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

2-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tarixi. Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.

“Muammoli” vaziyatda ishlash.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta‘lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

3-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining ”Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonuni”

“Aqliy hujum” metodidan foydalanish o‘rganish.

Metodning maqsadi: biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta‘lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta‘lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta‘lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta‘lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta‘lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr - g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

-ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

-ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

-ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

-fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

-yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

Muammoli savol beriladi. Fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g'oyalar guruhlanadi. Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boradi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qaxramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, xazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qoladi.

4-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Tarbiyachilik kasbi, tarbiyachilik kasbining ahamiyati, tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar.

“VENN diagrammasi”da bajarish

Venn diagrammasi – 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tinglovchilar:


1) kichik gurhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to'ldiradilar;

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;

3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'yxatini tuzadi;

4) ish natijalarining taqdimoti.

Ilmiy tadqiqotning asosiy belgilari va tavsiflarini “VENN diagrammasi”da to'ldirang



5-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotining ish hujjatlari.

“INSERT” USULI

Samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib o‘rganishga yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan tinglovchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib “V”; “+”; “-“; “?” belgilar orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- Yangi ma’lumot

(-)-Men bilgan narsaga zid.

(?)-Meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.


“Insert” usuli jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

6-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Respublikada maktabgacha ta’limga doir ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni, mohiyati

“Nima uchuh?” metodini bajarish.



7-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonuni”ni amaliyotga tadbik etish

. “BBB” tenologiyalarida ko‘rib chiqish.

BBB JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.				
2.				
3.				
4.				

8-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maktabgacha ta’lim tizimida kadrlarni tayyorlash va sohaga qabul qilishga qo‘yiladigan talablar. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

FSMU metodini o‘tkazish.

FIKRINGIZNI BAYON ETING

FIKRINGIZNI ISBOTLOVCHI SABAB KO'RSATING

MISOL KELTIRING

FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING

9-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.


**“Klaster” metodidan foydalanish
TARMOQLAR” METODI (KLASTER)**

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Xayolga kelgan har qanday fikr ketma-ket yoziladi.
2. Fikrlar tugamaguncha yozishda davom ettirish kerak, fikrlar tugab qolsa, u holda yangi fikr kelguncha biron rasm chizib turing.
3. Iloji boricha fikrlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini ko'paytirishga intiling.
4. So'zlar ketma- ketligi faqat “nima?” degan so'rog'iga javob berishi lozim.

Ushbu metod yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlashda qo'llanishi mumkin. Guruh holatida qo'llanilishi guruhlar fikrini to'plash va ularni bir tizmdagi qurilmaga keltirish mumkin.


“Tarmoqlash” metodidan foydalanish



10-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog'lom rivojlanishidagi ahamiyati. Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko'rinishi



«Nima uchun?» texnikasi sxemasini tuzish qoidalari

1. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
2. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

11- Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Bola shaxsini rivojlanish omillari. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, sport musobaqalarini o‘tkazish.

“Xulosalar” metodida ko‘rish.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma‘ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy vaseminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib,
- o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma

bayon qiladi;

- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar.

Shundan so‘ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

12- Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida aqliy tarbiyani tashkil etilishi

“Muammoli” vaziyatda ishlash.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta‘lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlarini to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta‘lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

13- Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat markazlarida ta‘lim jarayonlarini tashkil qilish.

“INSERT” USULI

Samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib o‘rganishga yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan tinglovchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib “V”; “+”; “-“; “?” belgilar orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- Yangi ma’lumot

(-)-Men bilgan narsaga zid.

(?)-Meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

“Insert” usuli jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
--------------	---	---	---	---

14- Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim shakli.

FSMU metodini o'tkazish.

“Bolalarning arifmetik masalalarni tushinishining o'ziga xos xususiyati”
FIKRINGIZNI BAYON ETING
FIKRINGIZNI ISBOTLOVCHI SABAB KO'RSATING
MISOL KELTIRING
FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING

15- Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari Mashg'ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati. Mashg'ulot jadvali tuzish talablari. Mashg'ulotda tarbiyachining yetakchilik roli.

«Tushunchalar tahlili» uslubida to'ldiring

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach pedagog berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

-har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI

16- Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Mashg‘ulotga tarbiyachining innovasion yondashuvi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekskursiyani o‘tkazish mazmuni.

“Xulosalar” metodida ko‘rish.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy vaseminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib,

- o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma

bayon qiladi;

- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar.

Shundan so‘ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

17-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari.

“Blits-oyin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, yahni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh ahzolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga tahsir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi boyicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu boyicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

18-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Shaxs rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, ta‘lim-tarbiya. Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o‘rni. Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o‘rni.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-kuchli tomonlar,

W-zaif,kuchsiz tomonlari,

O-imkoniyatlari,

T-to'siqlar

19-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.

“Davra suhbatı” o'tkazish.

“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

20-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.

Tushunchalar tahlili» uslubida to'ldiring

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach pedagog berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar.

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan boyicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

8. Mustaqil ta'lim				
Mustaqil ta'lim mavzulari	Shakli	Dars soat	Ajratilgan ball	
I - semestr				
Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining predmeti va asosiy vazifalari	Mustaqil o`zlashtirish, esse yozish, manbaalar bilan ishlash, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning xususiyatlariga tavsif yozish, tushunchalar glossariysini tuzish.test tuzish.	5	4	
Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining tadqiqot metodlari		5		
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar.		5		
Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni.		5		
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.	Mustaqil o`zlashtirish, taqdimot tayyorlash. Ko'rgazmali jihozlar tayyorlash.Multimedia tayyorlash.test tuzish. Referat tayyorlash.	5	2	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog'lom rivojlanishidagi ahamiyati.		5		
Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.		5		
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.		5		
Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish.	Mustaqil o`zlashtirish, taqdimot tayyorlash, bolalar rivojlanishi, kun tartibi, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat, sayr, MTT tayyorloy guruhining kun tartibini rejalashtirish, ertalabki doirada olib boriladigan faoliyatlar sxemasini tuzish. Ko'rgazmali jihozlar tayyorlash, videorolik tayyorlash.	5	2	
Sayrning bolalar hayotidagi ahamiyati.		5		
Kunning ikkinchi yarmini samarali tashkil etish.		5		
"Ilk qadam"davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarida ta'lim jarayonlarini tashkil qilish.		5		
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya berish usullari. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari.	Nazariy manbaalar asosida mustaqil o`zlashtiriladi, doklad va	5	2	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqliy tarbiyani tashkil etilishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasi vazifalari.	kartoteka tayyorlanadi. Test tuzish.	5	
Mashg'ulotga tarbiyachining innovasion yondashuvi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekskursiyani o'tkazish mazmuni.		5	
Maktabgacha yoshdagi bolalar sensor tarbiyasining mazmuni, Maktabgacha yosh -sensor jarayonlarni rivojlanish davri.		5	
Jamoa shaxs axloqiy komolotining asosi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.	Kartoteka tayyorlash tartibi, navruz bayrami tadbirlari maromnomasini tuzish, tadbirlar siklogrammasini yaratish.	5	2
Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish mazmuni. Estetik tarbiya berish vazifalari, metodlari, vositalari.		5	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil qilish.		5	
Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati. O'yinchoq turlari, o'yinchoqqa qo'yiladigan talablar.		5	
Jamoa shaxs axloqiy komolotining asosi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.		5	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani tashkil qilish.	Nazariy manbaalardan foydalanib, dasturiy vositalarda kuzatish amallari bajariladi, natijaga ko'ra yozma xisobot tayyorlanadi, faoliyat ishlanmalarini tayyorlash, ustoz-shogird ish faoliyati yuzasidan ish reja shakllantirish. Ko'rgazmali jihozlar tshakllantirish, videorolik tayyorlash.	5	2
Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish.		5	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish.		5	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari.		5	
Kartoteka tayyorlash tartibi. Ta'limiy o'yinlar kartotekasini tayyorlash.	Ta'limiy o'qyin ishlanmasi tayyorlash. Ilk qadam davlat dasturida o'yin kompetensiyalari bo'yicha nazariy bilimlar o'rganish va taqdimot tayyorlash.	5	2
O'yin bola faoliyatining asosiy turi sifatida. O'yinning kelib chiqish tarixi.		5	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash nazariyasi.		5	

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida “Ilk qadam” dasturining ahamiyati.		5	
Maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalar ota-onalari bilan ish yuritish shakllari.	Ota onalar bilan hamkorlik ish shakllarini mustaqil o’rganish va taqdimot tayyorlash. Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish bo’yicha nizmni o’rganish.	5	2
Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari.		5	
Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish.		5	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarni tashkil qilish.		5	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish va rahbarlik qilish.	Mudira va Metodist ish hujjatlarining yuritilishini o’rganish. Tarbiyachi ish hujjatlarini o’rganish va taqdimot tayyorlash.	5	2
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv, metodik xujjatlarni yuritish.		5	
Pedagogik kengashni o’tkazishga rahbarlik qilish.		5	
Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari		5	
JAMI		180	20

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
3. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli Qarori.
4. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
5. “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
7. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
8. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
10. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Maxsus adabiyotlar.

1. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
2. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320

Axborot manbaalar

1. <http://www.edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
3. <http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.
4. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.
5. <http://www.xs.uz> – “Xalq so‘zi” gazetasi sayti.

6. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.
7. <http://www.kun.uz> – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti.

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
Arxiv xujjatlari	Архивные материалы	Archive documents	Fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ma'lum ahamiyat kasb etgani bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar.
Bolalar kitobi	Detskaya literatura	Children's literature	Shaxs va ta'limni rivojlantirish, bilimlarni tarqatishning eng muhim vositalardan biri bo'lgan nashr turi. Bolalar kitolari faqatgina o'qish va bilim olish manbai bo'libgina qolmay, balki bolaning estetik va psixologik tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi manbadir.
Boshqarish faoliyati	Управленческая деятельность	Management activity	Raxbarning pedagogik, normativ va psixologik asoslarda boshqarish qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan maqsadga muvofiq xatti-xarakatlari majmui.
Byurokratiya (buyruqbozlik)	Byurokratiya	Bureaucracy	(tom ma'noda- kanuelyariya hukmronligi; fransuzcha bureau-byuro, kanuelyariya va yunoncha-kratos-kuch, hokimiyat, hukmronlik) Tabaqalangan boshqaruv tizimi bo'lib, uning uchun har bir darajada vakolatlar chegarasining aniq belgilanganligi, qarorlarning mavjud qonunlar va qoidalarga binoan qabul qilinishi xosdir.
Genofond	Genofond	Genofond	Genlar zahirasi; turli genlarning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalganligi. Irsiy belgilarni o'rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Xozirgi vaqtda genofondni saqlash muammosi dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan.
Gigiena	Gigiena	Hygiene	Yashash tarzi va mehnat sharoitining inson sog'lig'iga ta'sirini o'rganadigan, kasalliklarni profilaktika qilish, sog'liqni saqlash va hayotni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan qadimiy tibbiyot sohalaridan biri.
Didaktik o'yinchoqlar	Didakticheskie igrushki	Didactic toys	Bolalarning aqliy va sensor rivojlanishi va ta'lim olishida xizmat qiladigan o'yinchoqlar turi. Bunday o'yinchoqlarga mozaikalar, stol ustida o'ynaladigan va bosma o'yinlar, xalq o'yinchoqlari (matryoshkalar, piramidalar, rangli sharlar, xushtaqlar, chillaqlar) kiradi.
Yosh guruhi	Mladshaya gruppа	Primary group	Yosh belgisiga ko'ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni

			davrlashtirishga muvofiq MTTda bolalarning yoshiga ko'ra ana'naviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
Inklyuziv ta'lim	Inklyuziv-noe obrazovanie	Inclusive education	Bolalarni bir biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati.
Iste'dod	Talant	Talent, gift	Qobiliyatlar, iqtidorlarning yuqori darajada rivojlanganligi bo'lib, ijodiy faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.
Kasbiy faoliyat	Professio-nalnaya deyatelno-st	Professiona-l activity	Biron narsaning bajarilishining murakkab va me'yoriy jihatdan belgilangan usuli. Mehnat sub'ekti faoliyatining sifat jihatdan belgilanadigan shaqli. Inson bajarayotgan faoliyatning murakkabligini tavsiflaydigan mezon.
Maktabgacha bolalik	Detskiy doshkol-nyy period	Pre-school period	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga etishi va ruhiyatining shaqllanishi bilan belgilanadi.
Maktabgacha yosh	Doshkol-nyy vozrast	Pre-school age	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamon milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri.
Maktabgacha yoshdagi bola kompetentligi	Kompeten- ciya rebenka doshkolno-go vozrasta	Competenc y of a pre- school age child	Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining asosiy xarakteristikasi. Kommunikativ, ijtimoiy, intellektual kompetentlikni hamda jismoniy rivojlanish borasidagi kompetentlikni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentlik bolaning o'z istaqlari, niyatlarini nutqiy va nutqiy bo'lmagan (imo-ishora, mimik va pantomimik) vositalar yordamida erkin ifoda etishida namoyon bo'ladi.
Maktabgacha ta'lim muassasa-lari	Doshkol- nye obrazovate- lnye uchrejdeniya	Preschool educational establishm ents	Turli yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan ta'lim muassasasi. Ularda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi, ta'limi, parvarishi va sog'lomlashtirilishi ta'minlanadi. Yo'nalishiga ko'ra Maktabgacha ta'lim tashkiloti quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy tipdagi MTT, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy

			rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalar uchun mo'ljallangan maxsus MTTlar va surunkali kasalliklar bilan og'riq bolalar uchun sanatoriya tipdagi MTTlar.
Maktabgacha ta'lim muassasalarning vazifalari	Zadachi doshkol-nogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya	Tasks of preschool educational establishments	ushbu muassasalarning vazifalari: bolalar hayotining muhofazasini, ularning intellektual, jismoniy va shaxs sifatidagi rivojlanishini ta'minlash uchun uning oilasi bilan aloqa o'rnatish.
Maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi	Materialno-texnicheskaya baza doshkol-nogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya	Material and technical base of preschool educational establishments	Muassasa balansida turgan asosiy vositalar majmui (bino, xovli, qo'shimcha qurilmalar, kommunikatsiya, yumshoq va qattiq jihozlar).
Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlanish konsepsiyasi	Konsepsiya razvitiya obrazovatel'nogo uchrejdeniya	Conception of educational establishment	Maktabgacha ta'lim tashkilotining kelgusidagi rivojini belgilab beradigan bosh g'oya; innovatsion jarayonlar natijasida uning yangilanishiga qaratilgan chora tadbirlar majmuini amalga oshirishning etakchi tamoyili.
Milliy ana'nalar	Natsionalnye traditsii	National traditions	Millat hayotining turli sohalorida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha.
Nodavlat notijorat tashkilot	Negosudars-tvennaya nekommercheskaya organizatsiya	Nongovernmental noncommercial organization	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.
Oilaviy muhit	Semeynaya obstanovka	Family environment	Oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muhitni ifodalovchi tushuncha. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyati, dunyo qarashi, tasavvur va e'tiqodini shaqlantirish hamda yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar, eng avvalo oila bag'rida shaqlanadi.
Oliy ta'lim	Vysheee obrazovanie	Higher education	Turli oliy dargohlarda oliy malakali mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari

			bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan, o'rta maxsus yoki kasb xunar ta'limini olgan hamda tegishli talablarni bajargan kishilarga ilmiy nazariy bilim berish xamda muayyan ko'nikmalarni shaqllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
Tarbiyalanuvchilar	Vospitan-niki	Pupil	Maktabgacha tarbiya muassasalariga boradigan bolalar; mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda tarbiyalanuvchi bolalar va o'smirlar maktabdan tashqari muassasalarda shug'ullanadigan bolalar.
Tarbiyachi	Vospitatel	Educator, teacher	Tarbiyani amalga oshiradigan , o'zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxs.
Ta'lim muassasasi-ni boshqarish	Rukovodstvo obrazovatel'nykh uchrejdeniyem	Managing the educational environment	Faoliyat subektlarining alohida faoliyati bo'lib, u rejalashtirish , tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish vositasida bolalar, pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xamkorlikdagi faoliyatining ta'limni takomillashtirish va ta'lim mussasasini rivojlantirish maqsadlariga yo'nalganligini ta'minlaydi.
Ta'lim sifati	Kachestvo obrazovaniya	Quality of education	Ta'lim jarayoni va uning natijalarini tavsiflaydigan kategoriya, ta'lim jarayoni qanday bo'lishi kerak, qanday maqsadlarga xizmat qilishi keraqligi to'g'risida jamiyatda tarqalgan tasavvurlarga qanchalik mosligini belgilaydi. Ta'lim sifati ta'lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari, atrof-olamga va bir birlariga nisbatan qadriy-emoçional munosabatlar normalari bilan o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimida ifodalanadi.
Farmon	Ukaz	Decree	Birqator mamlakatlarda davlat boshlig'ining normativ akti. O'zbekistonda Prezident farmoni.

ILOVALAR

Test savollari

1. **“Maktabgacha pedagogika” fanining ob’ektini nima tashkil etadi?**

- a) maktabgacha pedagogik faoliyat jarayoni
- b) maktabgacha pedagogik faoliyat mazmuni
- c) maktabgacha pedagogik faoliyat yo‘nalishlari
- d) maktabgacha pedagogik faoliyat bosqichlari

2. **Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari. Ular “Maktabgacha pedagogika” fanining ... sanaladi.**

- a) metodi;
- b) ob’ekti;
- c) predmeti;
- d) shakli.

3. **Ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui – bu ...**

- a) malaka;
- b) ko‘nikma;
- c) bilim;
- d) ma’lumot.

4. **Shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon nima yeb aytiladi?**

- a) o‘sh;
- b) rivojlanish;
- c) shakllanish;
- d) taraqqiy etish.

5. **Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosi ... deb ataladi.**

- a) individ;
- b) odam;
- c) inson;
- d) shaxs.

6. **Shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon – bu ...**

- a) shakllanish;
- b) rivojlanish;
- c) o‘sh;
- d) voyaga yetish.

7. **Qanday yo‘nalish yoki oqim individning shaxs sifatida rivojlanishida biologik omillarning ustuvorligini e’tirof etadi?**

- a) falsafiy yo‘nalish;
- b) pragmatik oqim;
- c) biologik yo‘nalish;
- d) preformizm oqimi.

8. **Inson yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir nima deb ataladi?**

- a) makon;
- b) tabiat;

- c) borliq;
- d) muhit.

9. Shaxs shakllanishiga nisbatan qanay yondashuvlar mavjud?

- a) falsafiy, ijtimoiy, biologik, huquqiy yondashuv;
- b) tarixiy, ijtimoiy, biologik, madaniy yondashuv;
- c) biologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv;
- d) biologik, pedagogik, psixologik, tarixiy yondashuv.

10. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui nima yeb ataladi?

- a) xususiyat;
- b) sifat;
- c) harakter;
- d) temperament.

11. Go‘dakning vazni tug‘ilgan paytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘lganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar qaysi yosh davriga xos?

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go‘daklik davri;
- d) katta yosh davri.

12. Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi.

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go‘daklik davri;
- d) katta yosh davri.

13. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg, bo‘yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. Bu o‘rinda qaysi yosh davri xususida so‘z bormoqda?

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go‘daklik davri;
- d) katta yosh davri.

14. Bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Ushbu xususiyatlar qaysi yosh davriga xos?

- a) kichik yosh davri;
- b) o‘rta yosh davri;
- c) go‘daklik davri;
- d) katta yosh davri.

15. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Bu o‘rinda qaysi yosh davri xususida so‘z bormoqda?

- a) maktabga tayyorlov davri;

- b) oʻrta yosh davri;
- c) goʻdaklik davri;
- d) katta yosh davri.

16. Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda nimaga tayaniladi?

- a) ota-onaning fikriga;
- b) tabiiy taʼlumotnomaga;
- c) tashxis markazining xulosasiga;
- d) bolaning oʻqishga boʻlgan xohishiga.

17. Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarda maʼnaviy-axloqiy sifatlar, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadda tashkil etilgan pedagogik jarayon nima deb ataladi?

- a) faoliyat jarayoni;
- b) taʼlim jarayoni;
- c) tarbiya jarayon;
- d) hamkorlik jarayoni.

18. Qoʻyilgan maqsad va vazifalar bilan bogʻliqlikda tarbiyalanuvchilar tomonidan egallanishi lozim boʻlgan maʼnaviy-axloqiy sifat, muayyan ish-harakatni tashkil etish ikoʻnikma, malakalari, eʼtiqod, harakter va xulq-atvor tizimi nimani ifodalaydi?

- a) tarbiya maqsadini;
- b) tarbiya vazifasini;
- c) tarbiya mazmunini;
- d) tarbiya natijasini.

19. Turli xil moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarnipg yagona birligiga boʻysundirilgan, bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq tarbiyaviy taʼsir majmui – bu ...

- a) tarbiyaviy faoliyat;
- b) tarbiyaviy choralar;
- c) tarbiyaviy maqsadlar;
- d) tarbiyaviy tadbirlar.

20. Bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlgan barqaror aloqalar nimani ifodalaydi?

- a) tarbiya shartlarini;
- b) tarbiya natijalarini;
- c) tarbiya maqsadlarini;
- d) tarbiya qonuniyatlarini.

21. Tarbiyaviy ishning yoʻnalishi, mazmuni, metodlari, tashkil etilishi, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qoʻyiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalar nima deb nomlanadi?

- a) tarbiya qonuniyatlari;
- b) tarbiya tamoyillari;
- c) tarbiya gʻoyalari;
- d) tarbiya maqsadlari.

22. Maqsadga qaratilganligi va gʻoyaviy yoʻnalganligi, tarbiyaning insonparvarlashuvi, tarbiyaning hayot va mehnat bilan bogʻliqligi. Ular nimani ifodalaydi?

- a) tarbiya qonuniyatlarini;
- b) tarbiya tamoyillarini;
- c) tarbiya gʻoyalarini;
- d) tarbiya maqsadlarini.

23. Tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarning necha turi mavjud?

- a) 2 turi;
- b) 4 turi;
- c) 6 turi;
- d) 7 turi.

24. Aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik va iqtisodiy tarbiya. Ular nimani ifodalaydi?

- a) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya turlarini;
- b) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya mazmunini;
- c) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya vazifalarini;
- d) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya natijasini.

25. Tarbiyalanuvchilarning intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor, qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat va jarayon nima deb ataladi?

- a) ekologik tarbiya;
- b) estetik tarbiya;
- c) axloqiy tarbiya;
- d) aqliy tarbiya.

26. Tarbiyalanuvchilarda dastlabki mehnat ko'nikma, malakalarini, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirib, ularni o'zgalar mehnati va mehnat mahsullari (natijalari)ni qadrlashga o'rgatadigan tarbiya turi qanay nomlanadi?

- a) ekologik tarbiya;
- b) mehnat tarbiyasi;
- c) axloqiy tarbiya;
- d) aqliy tarbiya.

27. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi qanday nomlanadi?

- a) jismoniy chiniqish;
- b) jismoniy mashqlar;
- c) jismoniy madaniyat;
- d) jismoniy tarbiya.

28. B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning qanday xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi?

- a) tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashiruvchi, umummadaniy, individual;
- b) rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashiruvchi, umummadaniy;
- c) rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, sog'lomlashiruvchi, chiniqtiruvchi, umummadaniy;
- d) rivojlantiruvchi, ta'limiy, sog'lomlashiruvchi, umummadaniy, individual.

29. Tabiiy omillar, gigiyenik shart-sharoitlar, jismoniy mashqlar. Ular nimalar sanaladi?

- a) jismoniy tarbiyaning muhim omillari;
- b) jismoniy tarbiyaning muhim elementlari;
- c) jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari;d) jismoniy tarbiyaning asosiy shartlari.

31. Bolalar poyafzalining poshnasi necha sm bo'lishi kerak?

- a) 0,5-1 sm;
- b) 1-1, 10 sm;
- c) 1-1,5 sm;
- d) 1,5-2 sm.

32. Turli faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibi ... deb ataladi?

- a) kun tartibi;
- b) faoliyat tartibi;
- c) munosabat tartibi;
- d) o'yin tartibi.

33. ... jismoniy tarbiya qonuniyatlari, vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi.

- a) jismoniy chiniqish;
- b) jismoniy mashqlar;
- c) jismoniy madaniyat;
- d) jismoniy tarbiya.

34. Asosiy, gigiyenik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir va tibbiy kabi turlarga bo'ladigan jismoniy mashqlar majmuii nima deb ataladi?

- a) atletika;
- b) faoliyat;
- c) kiyim-bosh;
- d) gimnastika.

35. Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashg'ulot – bu ...

- a) musobaqa;
- b) o'yin;
- c) topshiriq;
- d) mehnat.

36. Sayr nimalarda o'tkazilishi mumkin?

- a) trolleybusda, avtobusda, chanada, velosipedda;
- b) kemada, avtomobilda, avtobusda, tramvayda;
- c) sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda;
- d) piyoda, mototsiklda, piyoda, chanada.

37. Hayotiy ta'sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayoni – bu ...

- a) ongning rivojlanishi;
- b) aqliy rivojlanish;
- c) fahm-farosatning o'sishi;
- d) xotiraning rivojlanishi.

38. Ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi qanday nomlanadi?

- a) notiqlik tarbiyasi;
- b) fikriy tarbiya;
- c) aqliy tarbiya;
- d) tafakkur tarbiyasi.

39. Bola tomonidan narsa-buyumlarning tashqi xususiyatlari (rang, shakl, o'lcham va b.)ning anglanishi ... deb yuritiladi?

- a) bilish;

- b) his qilish;
- c) idrok etish;
- d) fikrlash.

40. ... bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan harakterlanadi.

- a) bilish;
- b) his qilish;
- c) idrok etish;
- d) fikrlash.

41. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashi qanday shakllarda kechadi?

- a) ko‘rgazmali-amaliy, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy-nutqiy;
- b) amaliy, ko‘rgazmali, ijodiy;
- c) ko‘rgazmali, obrazli, mantiqiy;
- d) harakatli, nutqli, obrazli.

42. ... o‘z tabiatiga ko‘ra tasviriy (gavdalantira olish) tavsifga ega bo‘lib, unda bolalar o‘zining tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari, avval egallagan bilimlari aks etadi. Gap nima haqida bormoqda?

- a) kompyuter o‘yinlari;
- b) ijodiy o‘yinlar;
- c) ishbop o‘yinlar;
- d) rolli o‘yinlar;

43. O‘zbekistonda qachondan boshlab “Bilimdon” turkumidagi kompyuter mashg‘ulot-o‘yinlari ishlab chiqila boshlagan?

- a) 2004 yildan;
- b) 2006 yildan;
- c) 2008 yildan;
- d) 2010 yildan.

44. “Rang va shakllarni o‘rganamiz” nomli kompyuter dasturi yoshli bolalarga mo‘ljallangan?

- a) 3-5 yoshli;
- b) 2-4 yoshli;
- c) 3-4 yoshli;
- d) 5-7 yoshli.

45. O‘zbekistonda “Bolalar muzeyi” qachon ochilgan?

- a) 2008 yil, 11 fevralda;
- b) 2011 yil, 8 aprelda;
- c) 2008 yil, 11 avgustda;
- d) 2011 yil, 8 oktyabrda.

46. Ob’ektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u ... deb ataladi.

- a) gap;
- b) so‘z;
- c) fikr;
- d) nazariya.

47. Ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmui nima deb ataladi?

- a) huquq;
- b) axloq;

c) me'yor;

d) qoida.

48. ... har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.

a) huquqiy me'yorlar;

b) axloqiy me'yorlar;

c) ekologik ko'rsatkichlar;

d) estetik mezonlar.

49. Bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna – bu ...

a) huquq;

b) axloq;

c) me'yor;

d) qoida.

50. Ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlari, moddiy va ma'naviy meros qanday nomlanadi?

a) qadriyat;

b) fazilat;

c) mahsulot;

d) oriyat.

51. Tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon – bu ...

a) shaxsga insonparvar yondashuv;

b) tarbiyaga texnologik yondashuv;

c) pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv;

d) tarbiya jarayoniga majmuaviy yondashuv.

52. ... tarbiyalanuvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullaridir.

a) axloqiy tarbiya metodlari;

b) axloqiy tarbiya me'yorlari;

c) axloqiy tarbiya maqsadlari;

d) axloqiy tarbiya natijalari.

53. ... – tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlantirish yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

a) tavsiya;

b) taklif;

c) ko'rsatma;

d) talab.

54. Bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh qanday nomlanadi?

a) elat;

b) urug';

c) oila;

d) jamoa.